№ 8-son, 2026

MUHOFAZA

ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-amaliy va badiiy jurnal



Mustaqillikning 35 YILLIGI MUBORAK BO‘LSIN!

“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib,
yangi hayot va kelajak yaratamiz!”



№ 8-son, 2026

MUHOFAZA

ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-amaliy va
badiiy jurnal

Muassis:
O‘zbekiston Respublikasi
Favqulodda vaziyatlar vazirligi

Bosh muharrir:
podpolkovnik
Rustam ALIMOV

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Dilmurod DO‘ST

Ijodiy jamoa:
Muxtasar TOJIMAMATOVA
Yulduz O‘RMONOVA
Gulnora SHERMATOVA

Musahhih:
Banoat YUNUSOVA

Sahifalovchilar:
Muhriddin HAMROYEV
Bunyod SALOHIDDINOV

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2025-yil 17-iyulda C-5669866-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin. Jurnal sahifalarida chop etilgan maqolalarni tahririyat bilan yozma kelishuvsiz ko‘chirib bosish taqiqlanadi.

Qog‘oz bichimi 60x84 1/8. Ofset usulida bosildi.
Shartli bosma taboq 4.0. Adadi 11500 nusxa.
Buyurtma № 73.
Bosmaxonaga topshirildi: 24.08.2026

“Oltin nashr” MChJ matbaa korxonasida
chop etildi.
Manzil: Toshkent sh.
Bunyodkor ko‘chasi, 42-uy.

Tahririyat manzili: 100084,Yunusobod tumani,
Sh.Rashidov ko‘chasi, 17-A uy.
Telegram: **(90) 703-00-29**



USHBU SONDA:

4 KAMRON KOMILOV,
KO‘LLARNING IQTISODIY QIYMATI VA MUHOFAZASI

8 GULNORA SHERMATOVA,
UYDAGI DORI VA KIMYOVIY VOSITALAR:

12 MUXTASAR TOJIMAMATOVA,
MEN SEVGAN DARYONING OVOZI

18 IBODAT RAHMONOVA,
TIZIMDA AYOLLAR O‘RNI VA NUFUZI

24 NARGIZA NURULLAYEVA,
HARBIY OILALARDAGI MA’NAVIY BARQARORLIK – VATAN TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORI

30 YULDUZ O‘RMONOVA,
QUTQARUVCHI UCHUN OG‘IR KUN BU...

32 INOMIDDIN IRISOV,
OLOVSIZ “YONG‘IN”



“MEN MUSTAQILLIK TENGDOSHIMAN!”

Inson hayotida shunday sanalar borki, ular oddiy raqam emas, taqdirning bir qismiga aylanadi. Mustaqillik bilan tengdoshlar bugun 35 yoshda. Ular endi Mustaqillikning guvohlari emas – uning bugungi kuni va ertangi kelajagini yaratayotgan avlod. Bugun o‘zi bilan tengdosh mamlakatda, uning xavfsizligi va osoyishtaligi yo‘lida xizmat qilmoqda.

Yillar o‘tib, inson kasbining mohiyatini chuqurroq anglay boshlaydi. Lavozimlar o‘zgaradi, vazifalar ortadi, tajriba boyiydi. Ammo bir narsa o‘zgarmasligi kerak — Vatanga bo‘lgan sadoqat. Mustaqillik bilan tengdosh avlodning eng katta sharafi ham shunda — ularga berilgan erkinlik va imkoniyatlarni o‘z mehnati, sadoqati va fidoyiligi bilan oqlash. Mustaqilligimizning 35 yilligi munosabati bilan FVV tizimida ishlab kelayotgan istiqlol tengdoshlarining fikr-mulohazalariga quloq tutdik.

“AXBOROT HAM ODAMNI QUTQARISHI MUMKIN”

Mirjon FAYZULLAYEV,
Buxoro viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Axborot xizmati boshlig‘i:

– 1991-yil. Bu sana xalqimiz hayotida yangi tarixning boshlanishi bo‘lgan bo‘lsa, shu yilda dunyoga kelgan farzandlar uchun yana bir o‘ziga xos ma’noga ega. Ular – Mustaqillik bilan tengdosh avlod. Ular mustaqillik bilan birga ulg‘aydi. Bolaligi yurtimizdagi yangilanishlar bilan, o‘smirligi yangi imkoniyatlar bilan, bugungi kuni esa mamlakat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shish istagi bilan uyg‘unlashdi. Bugun 1991-yilda tug‘ilganlar 35 yosh ostonasida. Ular endi Mustaqillikning ilk yillarini kuzatgan bolalar emas, balki uning bugungi taraqqiyotiga bevosita hissa qo‘shayotgan avloddir.

Favqulodda vaziyatlar sohasida xizmat qilayotgan har bir xodimdan doimiy tayyorgarlik, chaqqonlik va tezkorlik talab etiladi. Yosh kadrlarda esa bu fazilatlarga zamonaviy bilim, texnologiyalarga qiziqish va yangilikka intilish qo‘shiladi. Katta avlodning tajribasi va yoshlarning shijoati uyg‘unlashganda esa jamoada o‘ziga xos kuch paydo bo‘ladi. FVV tizimining 30 yillik faoliyati davomida shakllangan boy tajriba bugun yosh kadrlar uchun katta maktab bo‘lib xizmat qilmoqda. Darhaqiqat, bu yil FVV tashkil topganiga 30 yil bo‘ldi. Ikki shonli sanaga guvoh bo‘layotganim men uchun sharaf.

Axborot xizmatida ishlashning o‘ziga xos tomoni bor. Chunki biz yetkazayotgan har bir ma’lumot odamlarga ta’sir qiladi. Ayniqsa, favqulodda vaziyatlar sohasida axborot tezkor, aniq va ishonchli bo‘lishi kerak. Men ba’zan “axborot ham qutqaruvning bir qismi” degan fikrni o‘ylayman. Chunki o‘z vaqtida berilgan ogohlantirish insonni xavfdan qaytarishi, to‘g‘ri tushuntirish bir oilaning xavfsizligiga ta’sir qilishi mumkin. Odamlarga xavfsizlik qoidalarini doimiy yetkazish esa jamiyatda xavfsizlik madaniyatini shakllantiradi. Shuning uchun Axborot xizmati



xodimi o‘z ishiga oddiy jurnalistik vazifa sifatida emas, balki aholi xavfsizligiga qo‘shilayotgan hissa sifatida qarashi kerak. Bizning vazifamiz — qutqaruvchilarning xizmatini ko‘rsatish bilan cheklanib qolmasdan, odamlarni xavfdan oldin ogohlantirish hamdir.

Mustaqillik bilan tengdosh ekanimni har safar boshqacha his qilaman. Chunki bu shunchaki tug‘ilgan yilning bir xilligi emas. Inson o‘z hayotini yurtining tarixi bilan bog‘lab ko‘ra boshlar ekan, bu tushunchaning mas’uliyatini ham his qiladi.

MUSTAQILLIK — TENGSIZ NE’MAT

Qahramon MAMATOV,
Avariya qutqaruv otryadi “Beshqo‘l” avariya-qutqaruv guruhi katta usta-qutqaruvchisi:

– 2011-yildan buyon “Qamchiq” Maxsus qutqaruv boshqarmasi tizimida faoliyat yuritib kelmoqdaman. Mehnat faoliyatimni oddiy qutqaruvchi lavozimidan boshlagan bo‘lsam, yillar davomida o‘z kasbimga bo‘lgan sadoqatim, tajriba va izlanishlarim natijasida katta usta-qutqaruvchi lavozimigacha ko‘tarildim.

Men uchun Mustaqillik, avvalo, ona Vatanimizning tinchligi, xalqimizning erkin va farovon hayoti, kelajagimizni o‘zimiz belgilash imkoniyatidir. Qolaversa, Vatan bu – oila. Odam uyiga qanday talpinsa, Vataniga ham shunday talpinadi. Biror xorijlik O‘zbekiston nomini tilga olsa yoki o‘zbekcha gapirsa odam yuragi qanday jizillaydi. Vatan ana shu jiz etgan his.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizning barcha sohalari qatori qutqaruv tizimida ham katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Zamonaviy texnika va jihozlar bilan ta’minlanish, qutqaruvchilarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga qaratilayotgan e’tibor bizga o‘z vazifamizni yanada sifatli bajarish imkonini bermoqda.

Qutqaruvchi sifatida inson hayoti va xavfsizligini asrashni eng sharafli va mas’uliyatli vazifalardan biri deb bilaman. Favqulodda vaziyatlarda fuqarolarga o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish, ularning hayotini saqlab qolish uchun bor kuch va imkoniyatimizni safarbar etish – bizning kasbiy va insoniy burchimizdir.

Yillar davomida orttirgan tajribam shuni ko‘rsatdiki, Vatanga xizmat qilish katta mas’uliyat bilan birga, ulkan faxr hamdir. Men bundan keyin ham o‘z kasbiy bilim va ko‘nikmalarimni oshirib, xalqimiz xavfsizligi va yurtimiz tinchligi yo‘lida sidqidildan xizmat qilishni davom ettiraman.



Tilagim, hech kimning uyi yonmasin, hech kimning joni ham, moli ham xatarda qolmasin. Qush ham inida tinch yashasin deymiz. Yaxshi kunlarimiz bardavom, Mustaqilligimiz abadiy, yurtimiz tinch, xalqimiz hayoti farovon bo‘lsin...

Yulduz O‘RMONOVA
tayyorladi.

27-AVGUST – BUTUNJAHON KO‘LLAR KUNI

BUGUNGI KUNDA TABIIY RESURSLARDAN OQILONA VA BARQAROR FOYDALANISH MASALASI GLOBAL IQTISODIY HAMDA EKOLOGIK SIYOSATNING USTUVOR YO‘NALISHLARIDAN BIRIGA AYLANMOQDA. AYNIQSA, CHUCHUK SUV RESURSLARINING CHEKLANGANLIGI, IQLIM O‘ZGARISHI, AHOLI SONINING O‘SISHI VA IQTISODIYOT TARMOQLARIDA SUVGA BO‘LGAN TALABNING ORTIB BORISHI SUV HAVZALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH BILAN BIR QATORDA ULARNING EKOLOGIK HOLATINI SAQLASHNI HAM TAQOZO ETMOQDA.



KO‘LLARNING IQTISODIY QIYMATI VA MUHOFAZASI

Ko‘llar mazkur jarayonda alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular suv ta’minoti, baliqchilik, qishloq xo‘jaligi, rekreatsiya va turizm kabi iqtisodiy faoliyatlar uchun resurs bazasi vazifasini bajarish bilan birga, biologik xilma-xillikni saqlash, suv oqimini tartibga solish, tabiiy filtratsiya va iqlimiy barqarorlikni ta’minlash kabi muhim ekotizim xizmatlarini ham amalga oshiradi.

Ramsar Konvensiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, ko‘llar suv-botqoq ekotizimlarining tarkibiy qismi bo‘lib, ular inson farovonligi uchun chuchuk suv, oziq-ovqat, biologik xilma-xillik, toshqinlarni tartibga solish, yer osti suvlarini to‘ldirish va iqlim o‘zgarishiga moslashish kabi ko‘plab xizmatlarni taqdim etadi.

Ekologik xavfsizlik nuqtayi nazaridan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF–5863-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi” ham muhim normativ-huquqiy asos hisoblanadi. Ushbu konsepsiya mamlakatda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlashning uzoq muddatli yo‘nalishlarini belgilaydi. Mazkur siyosiy-huquqiy yondashuv ko‘l ekotizimlarini faqat iqtisodiy resurs sifatida emas, balki ekologik barqarorlikni ta’minlovchi tabiiy kapital sifatida ko‘rib chiqishni talab etadi.

Ko‘llarni muhofaza qilishning quyidagi iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq:

1. Ko‘l ekotizimlari tomonidan taqdim etiladigan xizmatlarni iqtisodiy baholash;
2. Suvdan foydalanishning



ekologik chegaralarini belgilash;

3. Baliqchilikda biologik tiklanish imkoniyatiga mos kvotalarni joriy etish;

4. Ekologik turizmni rivojlantirish;

5. Suv sifati va suv sathini raqamli monitoring qilish;

6. Suvdan foydalanishda "ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyilini kuchaytirish;

7. Ko'l va qirg'oqbo'yi hududlarida ekologik zonalashtirishni amalga oshirish;

8. Mahalliy aholi va tadbirkorlarni ko'lni muhofaza qilish jarayoniga iqtisodiy manfaatdorlik asosida jalb etish.


Bunday mexanizmlar iqtisodiy faoliyatni to'liq cheklash emas, balki undan olinadigan manfaatni ko'l ekotizimining uzoq muddatli barqarorligi bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, baliqchilik va rekreatsiya salohiyatiga ega ko'llarda iqtisodiy foydalanishdan olinadigan daromadning muayyan qismini suv havzasini ekologik tiklash va monitoring qilishga yo'naltirish samarali mexanizm bo'lishi mumkin. Bu yondashuv "foydalanish – daromad olish – muhofazaga qayta investitsiya qilish" tamoyili asosida tabiiy resurslardan foydalanishning yopiq iqtisodiy siklini shakllantiradi. Umuman olganda, 2025–2026-yillardagi suv siyosatining asosiy tendensiyasi suv resurslarini oddiy xo'jalik resursi sifatida emas, balki cheklangan va strategik tabiiy kapital sifatida boshqarishga o'tish bilan tavsiflanadi. Ko'llarning iqtisodiy qiymatini ham aynan shu konsepsiya asosida baholash, ya'ni iqtisodiy manfaat, ekologik barqarorlik va kelajak avlodlar manfaatlarini yagona tizimda ko'rib chiqish zarur.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'llar iqtisodiyot uchun muhim tabiiy kapital bo'lib, ularning qiymati faqat bevosita foydalanishdan olinadigan daromadlar bilan chegaralanmaydi. Ko'l ekotizimlari suv ta'minoti, baliqchilik, qishloq xo'jaligi, turizm va rekreatsiya kabi iqtisodiy faoliyatlarni qo'llab-quvvatlash bilan birga, biologik xilma-xillikni saqlash, suv sifatini tabiiy tartibga solish, toshqinlarning salbiy oqibatlarini kamaytirish va boshqa ekotizim xizmatlarini taqdim etadi. Shu sababli ko'llarning iqtisodiy qiymatini baholashda ekologik xizmatlarning qiymatini ham hisobga olish zarur. 2025-yilgi Global Wetland Outlook ma'lumotlari suv-botqoq ekotizimlarining iqtisodiy ahamiyati nihoyatda yuqori ekanini ko'rsatadi. Hisobotga ko'ra, dunyoda 1970-yildan buyon kamida 400 million gektar suv-botqoq hududlar yo'qolgan, mavjud hududlarning qariyb chorak qismi degradatsiyaga uchragan. Shu bilan birga, saqlanib qolgan suv-botqoq hududlar tomonidan yaratiladigan global iqtisodiy manfaatlar yiliga 39 trillion AQSh dollarigacha baholanmoqda. Bu holat tabiiy suv ekotizimlarini muhofaza qilishni iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi omil emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikning muhim sharti sifatida qarash lozimligini anglatadi. O'zbekiston sharoitida ushbu masala suv resurslarining cheklanganligi va ularga bo'lgan talabning yuqoriligi sababli yanada dolzarbdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PF–6024-son Farmoni bilan tasdiqlangan suv xo'jaligini 2020–2030-yillarda rivojlantirish konsepsiyasida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va atrof-muhitning suvga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish vazifalari belgilangan.

Mazkur siyosatning keyingi bosqichi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi PQ–250-son qarori bilan tasdiqlangan 2025–2028-yillarga mo'ljallangan suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirish dasturida o'z ifodasini topgan. Dastur suv resurslaridan samarali foydalanish, irrigatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish va suv tejovchi texnologiyalarni kengaytirishga yo'naltirilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ko'llardan foydalanish va ularni muhofaza qilish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash uchun uchta asosiy tamoyilga amal qilish maqsadga muvofiq: birinchidan, ko'lning tabiiy tiklanish imkoniyatidan ortiq darajada foydalanishga yo'l qo'ymaslik; ikkinchidan, iqtisodiy faoliyat natijasida yuzaga keladigan ekologik xarajatlarni iqtisodiy baholashga kiritish; uchinchidan, ko'l ekotizimlaridan olinadigan iqtisodiy manfaatlarning bir qismini ularni muhofaza qilish va tiklashga yo'naltirish.

Shuningdek, ko'llarning iqtisodiy qiymatini aniqlashda ekotizim xizmatlarini monetar baholash, ekologik monitoring, raqamli suv hisobi va hududiy ekologik zonalashtirish mexanizmlaridan foydalanish samarali natija beradi. Ayniqsa, suv resurslarini raqamlashtirish va real vaqt rejimida monitoring qilish suvdan foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga, suv havzalariga tushadigan antropogen bosimni aniqlash imkonini beradi.

Kamron KOMILOV,
Toshkent Transport universiteti
Iqtisodiyot fakulteti
1-bosqich talabasi



BIR PARCHA SOYA

YOZ MAVSUMINING JAZIRAMA KUNLARI AVJ PARDAGA KO‘TARILIB, QUYOSH ISSIQ HARORATINI HAR TOMON PURKAY BOSHLADI. AYNIQSA, SARATON CHILLASI AVJIGA CHIQQAN KEZLAR QAYERGA QARAMANG, QUYOSHNING OTASH TIG‘IDAN HIMOYA IZLAB HAMMA O‘ZINI DARAXTLAR SOYASIGA URGAN. KO‘PINCHA BUNDAY HOLAT GAVJUM BEKATLARDA TRANSPORT KUTIB TURGAN AHOLI TOMONIDAN KO‘PROQ KUZATILADI.

“Qaysi musulmon ekin eksa yoki biror daraxt o‘tqazsa, so‘ng uning mevasidan qush yoki hayvon yesa, uning ekkanidan yeyilgan narsaning har biridan unga sadaqa savobi yoziladi”.

“Hadis”dan

Shunda mo‘jaz bir haqiqatni angladimki, Olloh yaratgan oddiy mo‘jizalardan biri bo‘lgan daraxtlarning-da, insonlarga tegayotgan nafi behisob ekan.

Darhaqiqat, gap dov-daraxtlar xususida ketar ekan, uning biz bilgan va bilmagan yuzlab, balki minglab sir-sinoatlari, o‘ziga xos tilsimotlari ham mavjud ekan. Adabiyotlarda o‘qiganim bor. Ikkinchi jahon urushi davrida minglab askarlarimiz hayotini o‘rmon daraxtlari saqlab qolib, bemisl xaloskorlik vazifasini o‘tagani rost. Faqat bugina emas, daraxtlarni umrboqiylik, sihat-salomatlik manbaiga qiyoslasak, hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Negaki, bu holatlar quyidagi misollarda o‘z aksini topgan.

Professor N. I. Traytakning ta’kidlashicha, yoz chillasida daraxtli va daraxtsiz joylarning mikroklimati turlicha bo‘larkan. Masalan, iyun oyida harorati 50 daraja bo‘lsa, daraxtsiz ko‘chadagi asfalt harorati 65–70 °C ni, daraxtli joylarda esa 32–35 °C ni tashkil qilsa, daraxt soyasidagi havo harorati 24–26 °C daraja atrofida bo‘lar ekan. Daraxt barglari faqat haroratga emas, balki havo tarkibiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatar ekan. Bir metr kub havoda 500–1000 donagacha mikrob bo‘lishi mumkin. Bunday havo nisbatan toza hisoblanadi. Aksariyat o‘rmon daraxtlari uchuvchan organik moddalar ajratadi. Bu moddalar nafas olganda havo bilan darmondori tarzida organizmga kiradi va o‘zlashtiriladi. O‘rmon havosining toza, mo‘tadilligi, salqinligi ham shundan. Daraxtzorlarda havoning toza bo‘lishi o‘simliklardan ko‘plab chiqariladigan fitonsidlar ta’sirida mikroblarning qirilishi bilan bog‘liqdir. Fitonsidlar mikroorganizmlarga qiron keltiribgina qolmay, balki hasharotlarga ham zarar yetkazadi. Bir gektar yerdagi 10–15 yillik o‘rmon har yili uch tonna kislorod, o‘n kilogramm fitonsid ishlab chiqarish bilan birga 50 tonna changni ham yutadi. Oddiy misol:

18–20 yoshli bitta terak bir kecha-kunduzda 180 litr kislorod ishlab chiqaradi.

Bundan tashqari, olimlarning hisob-kitobiga ko‘ra, bir gektar yerdagi daraxt barglari 2 kg karbonat angidrid gazini o‘zlashtirarkan. Fitonsidlar esa tirik organizmlarda turli kasalliklarni qo‘zg‘atuvchi mikroorganizmlarni bartaraf etadi. Shuning uchun ham o‘rmon havosi shaharnikidan ancha farq qiladi. Masalan, o‘rmondagi 1 m^3 havoda 200–300 bakteriya bo‘lsa, shahardagi shu holatda bu ko‘rsatkich 45 000–50 000 miqdorni tashkil etadi. Shu bois, xonalarda turli-tuman gullar saqlash, hovli, ko‘cha va xiyobonlarda har xil o‘simliklar ekish xosiyatlidir, chunki ular havoni tozalab inson salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham dam olish uylari, sanatoriylar va hordiq chiqarish muassasalari tog‘li va soya-salqin, bahavo maskanlarda bunyod etilayotgani bejiz emas.


Shifokor-olimlarning aytishiga qaraganda, sof havodan bahramand kishi chiniqqan bo‘ladi, shamollash kabi kasalliklar bilan og‘rimaydi. Salqin va sof havo badanni bamisoli “chayadi”, “yuvadi”. Shunda terining sezgi nervlari uyg‘onib, badan haroratini maromiga keltiradi. Yurak qon-tomir faoliyati ortadi, nafas olish chuqurlashadi, ruhiy doira tiniq va ravshan bo‘ladi.

Biroq shaharning o‘sishi va taraqqiy etishi ta’sirida tarkib topgan iqlim ko‘pgina hollarda kishi sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shahar iqlimining inson organizmiga salbiy ta’sir etishiga oddiy bir sabab shundaki, yoz paytlarda katta shaharlarda havo o‘ta issiq bo‘ladi. Asfalt, binolarning qizib ketishi natijasida nafas olish ham og‘irlashadi. Kishi o‘zini lohas sezadi. Shuning uchun ham atmosferani sog‘lomlashtirishda o‘simliklar benihoya katta ahamiyat kasb etadi. O‘simliklar havo namligini oshirib, temperaturasini pasaytiradi, mikroiqlimni yaxshilash bilan birga havoni chang-g‘uborlardan tozalab, bakteriyalarga qiron keltiradi, shuningdek, ko‘cha-ko‘ydagi shovqinlarni kamaytiradi. Shunday ekan, daraxtzorlar maydonini kengaytirish sanitariya-gigiyena nuqtayi nazaridan ham katta ahamiyatga ega ekan.

“Bir tup daraxt ekkan kishiga uning soyasidan bahra olganlar duosi bilan bir dunyo savobi yoziladi” deyilgan Hadisi sharifda. Afsuski, ba’zi kishilar orasida biror bir inshoot yoki boshqa ko‘chmas mulk binosi qurish bahonasida yon-atrofdagi daraxtlarni ayovsiz kesishdan qaytmaydigan loqayd kimsalar ham uchraydi. Xalqimizda “Birni kessang, o‘nni ek” degan maqol ham bejiz aytilmagan-ku! Qaniydi, o‘sha vallomatlar har bir bekat yoki inshoot atrofida bitta kesilgan mevali yoki manzarali daraxt o‘rniga hech bo‘lmaganda o‘ntasini ekib qoyillatsalar edi, gunohidan savobi ortgan bo‘larmidi?

Shuni alohida ta’kidlashni istardimki, oddiy mulohazalar, ushbu maqolani turli manbalarga asoslanib yozishimga asosiy sabab, kamina yuqorida tasvirlab o‘tgan voqea – daraxtning bir parcha soyasidan himoya izlagan insonlarning holati turtki bo‘lgandi...

Azamat SUYUNOV,
jurnalist





UYDAGI DORI VA KIMYOVIY VOSITALAR:

XAVFSIZLIK KICHIK E'TIBORDAN BOSHLANADI



Deyarli har birimizning uyimizda dori qutisi yoki oshxonaning quyi javonida tozalash vositalari, kimyoviy moddalar saqlanadi. Ammo ko'pchiligimiz bu narsalarni qanday saqlash kerakligi haqida jiddiy o'ylab ko'rmaymiz. Aslida esa noto'g'ri saqlangan dori-darmon yoki kimyoviy vosita, ayniqsa, bolalar bo'lgan xonadonlarda, jiddiy zaharlanish, hatto yong'in kabi og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Statistikaga nazar tashlasak, dunyo bo'yicha uy sharoitidagi baxtsiz hodisalarning katta qismi aynan noto'g'ri saqlangan dori va kimyoviy vositalar bilan bog'liq ekanligini ko'ramiz. Bu muammoning aksariyati oddiy bilimsizlik yoki beparvolik oqibatida yuzaga keladi.

Tibbiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, zaharlanish holatlarining katta qismi, taxminan 60 foizga yaqini, 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda qayd etiladi, ularning esa 90 foizdan ortig'i aynan uy sharoitida yuz beradi. Bundan tashqari, mutaxassislar barcha zaharlanishlarning deyarli 80 foizi tasodifiy tarzda, ya'ni odamning o'zi bilmagan holda sodir bo'lishini ta'kidlashadi. Bu ko'rsatkich shuni anglatadiki, aksariyat holatlarda fojia oldindan bilib turib emas, balki oddiy beparvolik yoki preparatning qanchalik zaharli ekanini bilmaslik tufayli yuz beradi. Raqamlar esa ushbu holatning nafaqat bizning mamlakatimizda, balki butun dunyoda dolzarb muammo ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimi bunday hodisalarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etishda muhim o'rin tutadi.

Ko'pchilik dorilarni oshxonada, televizor yonida yoki hatto yotoqxonasida, qo'l yetadigan joyda saqlaydi. Bu juda xavfli odat. Dorilar doimo bolalar qo'li yetmaydigan, imkon qadar balandroq va qulflanadigan joyda saqlanishi shart. Har yili son-sanoqsiz bolalar uyda qolib ketgan dorilarni shirinlik deb o'ylab yeb qo'yishi natijasida zaharlanish holatlari qayd etiladi. Shuningdek, dorilarni to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri tushadigan joyda yoki nam muhitda, masalan hammomda saqlash ham noto'g'ri. Bunday sharoit dorining kimyoviy tarkibini buzib, uning ta'sirini kamaytirishi yoki hatto zararli birikmalar hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin. Dorilar uchun eng maqbul joy quruq, salqin va yorug'lik tushmaydigan shkaf hisoblanadi, harorat esa odatda 15-25 daraja atrofida bo'lishi kerak.

Har bir dori turi o'ziga xos saqlash shartiga ega. Masalan, sirop va tomchi shaklidagi dorilar ochilgandan so'ng odatda uzoq muddat saqlanmaydi, ularning ko'pchiligi ochilgandan keyin bir necha hafta ichida ishlatilishi kerak. Muzlatkichda saqlanishi lozim bo'lgan dorilar (ba'zi antibiotiklar, insulin kabi preparatlar) alohida yorliqlangan qutida, oziq-ovqat mahsulotlaridan ajratilgan holda saqlanishi shart, aks holda oila a'zolaridan biri uni adashtirib, ovqat tayyorlashda ishlatib yuborishi mumkin.

Muddati o'tgan dorilarni saqlab qo'yish ham keng tarqalgan xato. Ko'pchilik "hali ishlatilmagan-ku" deb muddati o'tgan dorilarni tashlamaydi. Ammo muddati o'tgan dori nafaqat foydasiz, balki o'ta zararli bo'lishi mumkin, chunki uning kimyoviy tarkibi vaqt o'tishi bilan o'zgarib, kutilmagan ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli har olti oyda bir marta dori qutingizni ko'zdan kechirib, muddati o'tgan yoki nomi o'chib ketgan dorilarni ajratib tashlash tavsiya etiladi.

Dori qutisini tartibga solishda amaliy bir usul bor: barcha dorilarni turkumlarga ajratib saqlash, masalan, isitma tushiruvchi va og'riq qoldiruvchi vositalar bir joyda, jarohat davolash uchun kerakli preparatlar (bint, yod, plastir) alohida, surunkali kasalliklar uchun doimiy qabul qilinadigan dorilar esa yana boshqa bo'lakda. Bu nafaqat vaqt tejaydi, balki shoshilinch holatlarda kerakli dorini tezda topishga yordam beradi. Har bir oilada, ayniqsa uzoq muddatli davolanish talab etadigan a'zosi bo'lsa, dorilar ro'yxati va ularning qabul qilish tartibini alohida qog'ozga yozib qo'yish ham foydali odat hisoblanadi.



Endi kimyoviy moddalar, ya'ni tozalash vositalari, xlorli eritmalar, hasharotlarga qarshi preparatlar va shunga o'xshash mahsulotlarga to'xtalamiz. Bu moddalar uy sharoitida eng ko'p zaharlanish va kuyish holatlariga sabab bo'ladigan vositalar hisoblanadi. Ularni hech qachon oziq-ovqat mahsulotlari saqlanadigan joyda yoki oshxona javonida saqlash mumkin emas. Ayniqsa, xavfli holat – kimyoviy suyuqlikni asl idishidan boshqa idishga, masalan suv yoki ichimlik shishasiga quyib qo'yish. Bunday holatda uy a'zolaridan biri, ayniqsa bola, uni ichimlik deb adashtirib ichib qo'yishi mumkin, bu esa og'ir zaharlanishga olib keladi. Har doim kimyoviy moddalarni faqat o'zining asl, yorlig'i bor idishida saqlash kerak.

Kimyoviy vositalarni bir-biri bilan aralashtirish ham katta xavf tug'diradi. Masalan, xlorli oqartirgich bilan boshqa tozalash vositalarini (ayniqsa ammiak saqlovchi mahsulotlarni) birga aralashtirish zaharli gaz hosil bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin, bu esa nafas olish yo'llariga jiddiy zarar yetkazadi. Xuddi shunday, kislotali tarkibli vositalarni (masalan, hojatxona tozalagichlar) ishqoriy moddalar bilan aralashtirish ham xavfli reaksiyaga olib kelishi mumkin. Shuning uchun tozalash ishlarini olib borishda faqat bitta turdagi vositadan foydalanish, ishlatishdan oldin albatta yorliqdagi ko'rsatmalarni o'qib chiqish va xonani yaxshi shamollatib turish tavsiya etiladi. Tozalash ishlari paytida qo'lqop kiyish, imkon bo'lsa niqob taqish ham nafas yo'llari va terini himoya qiladi.

Yong'in xavfi nuqtayi nazaridan ham ba'zi kimyoviy moddalar alohida ehtiyotkorlikni talab qiladi. Spirtli eritmalar, aerozol balonchalar, benzin yoki boshqa yonuvchan suyuqliklarni issiqlik manbalaridan, gaz plitasi yoki elektr asboblardan uzoqroqda, salqin joyda saqlash zarur. Bunday moddalarni quyosh nuri tik tushadigan balkonda yoki mashina bagajida issiq kunlarda qoldirish ham xavfli, chunki harorat ko'tarilishi bilan ular portlash yoki yong'in xavfini oshiradi. Aerozol ballonchalarni hech qachon o'choq yoki isitgich yaqinida saqlamaslik, ularni tashlashda ham oddiy axlatga emas, balki maxsus qabul punktlariga topshirish tavsiya etiladi, chunki bo'sh ballon ham ma'lum darajada bosim ostida qolishi mumkin.

Hasharotlarga qarshi vositalar va zaharli o'g'itlar bilan ishlashda ham alohida ehtiyot choralari zarur. Bunday moddalarni purkash paytida xonadagi barcha oziq-ovqat mahsulotlari va idish-tovoqlarni yopib qo'yish, ishdan so'ng xonani yaxshilab shamollatish, ishlatilgan vositani bolalar va uy hayvonlaridan yiroq joyga qo'yish lozim. Ba'zi hollarda bunday vositalar teri orqali ham so'rilishi mumkinligini unutmaslik kerak. Shu sababli ular bilan ishlaganda qo'lqop taqish tavsiya etiladi.

Uyda kichik bolalar bo'lsa, ehtiyot choralari yana ham jiddiyroq bo'lishi kerak. Dori va kimyoviy moddalar saqlanadigan barcha tokcha va javonlarga bolalar qo'li yetmaydigan darajada bo'lishi, pastda bo'lsa, qulflar o'rnatish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, bolalarga hech qachon dorini "konfet" yoki "shirinlik" deb atab bermaslik kerak, bu ularda noto'g'ri tasavvur uyg'otib, keyinchalik o'zlari mustaqil dori ichib qo'yishiga sabab bo'lishi mumkin.

Agar uy sharoitida zaharlanish yuz bergan bo'lsa, birinchi navbatda vahima qilmasdan darhol tez yordam xizmatiga qo'ng'iroq qilish kerak. Zaharlangan odamni o'zboshimchalik bilan davolashga urinish, ayniqsa kimyoviy kuydiruvchi moddalar bilan zaharlanishda, holatni yanada og'irlashtirishi mumkin, shuning uchun bunday harakatlarni faqat mutaxassis ko'rsatmasi bilangina amalga oshirish lozim. Imkon bo'lsa, zaharlangan moddaning idishi yoki yorlig'ini tez yordam shifokoriga u yetib kelguncha muddatda ko'rsatish zarur. Teriga kimyoviy modda tegib qolgan hollarda, o'sha joyni darhol ko'p miqdordagi toza suv bilan kamida 15-20 daqiqa davomida yuvish tavsiya etiladi, ko'zga tushganda ham xuddi shunday: ko'zni ochiq holda oqar suv ostida yuvish va tezda shifokorga murojaat qilish zarur.

Har bir oilada, ayniqsa yosh bolalar yoki keksa yoshdagi a'zolar bo'lgan xonadonlarda, tez yordam va zaharlanishga qarshi markaz raqamlarini ko'rinadigan joyga, masalan muzlatkich eshigiga yozib qo'yish tavsiya etiladi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimi nafaqat uy sharoitidagi alohida zaharlanish holatlarida, balki kimyoviy moddalar bilan bog'liq yirik avariyalarda ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Zamonaviy dunyoda kimyoviy ishlab chiqarish korxonalari, omborlar va transport vositalaridagi avariyalar natijasida katta miqdorda zaharli moddalarning atrof-muhitga tarqalishi xavfi doimo mavjud. Aynan shu sababli favqulodda vaziyatlar xizmatlari tarkibida kimyoviy razvedka bo'linmalari faoliyat yuritadi: ular xavfli hudud chegaralarini aniqlaydi, moddaning turini tezkor tahlil qiladi va aholini xavf haqida darhol xabardor qilish tizimini ishga tushiradi.

Uyimizda dori va kimyoviy vositalarni to'g'ri saqlash, ularni ehtiyotkorlik bilan qo'llash – bu shunchaki shaxsiy xavfsizlik masalasi emas, balki umumiy, mamlakat miqyosidagi xavfsizlik tizimining eng kichik, ammo eng muhim bo'g'inidir. Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlari qanchalik tayyor va professional bo'lmasin, eng yaxshi yordam – bu hodisaning umuman yuz bermasligidir, va bu aynan bizning qo'limizda.

Xulosa qilib aytganda, uyimizdagi dori vositalari va kimyoviy moddalar kundalik hayotimizning ajralmas qismi bo'lsa-da, ularga nisbatan beparvo munosabat oilamiz salomatligi va xavfsizligiga jiddiy tahdid solishi mumkin. Xavfsizlik kichik e'tibordan boshlanadi, va aynan shu kichik e'tibor katta baxtsizliklarning oldini olishi mumkin.

Gulnora SHERMATOVA,
"Muhofaza" muxbiri

Samarqand NONI – milliy brend



Samarqand deganda ko‘z oldimizga, avvalo, qadimiy tarix, betakror me’moriy obidalar, Registonning mahobati va boy milliy qadriyatlar keladi. Bu ko‘hna zaminning o‘ziga xos timsollaridan yana biri esa – Samarqand nonidir. Asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan nonvoylik an’anasi bugungi kungacha o‘z qadrini yo‘qotmagan. Tandirdan uzilgan issiq, xushbo‘y Samarqand noni xalqimiz dasturxonining ko‘rki, mehmondo‘stligimiz va milliy qadriyatlarimizning o‘ziga xos ifodasidir.



Samarqand nonining tarixi qadimiy shaharning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan Samarqand asrlar davomida savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniyat markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Turli o‘lkalardan kelgan savdogar va sayohatchilar shaharning nafaqat me’moriy obidalari, balki bozorlari, hunarmandchiligi va nonvoylik an’analariga ham guvoh bo‘lganlar.

O‘zbek xalqida non azaldan muqaddas ne’mat sifatida e’zozlangan. Dasturxonga avval non qo‘yilishi, mehmonning non bilan kutib olinishi, nonni yerga tashlamaslik va uni qadrlash kabi odatlar xalqimizning unga bo‘lgan hurmatini ko‘rsatadi. Shu ma’noda Samarqand noni oddiy oziq-ovqat mahsulotidan ko‘ra kengroq tushunchani anglatadi. Uning har bir burdasida xalqimizning mehnati, sabr-toqati, mehmondo‘stligi va qadriyatlari mujassam.

Samarqand nonini o‘ziga xos qiladigan jihatlardan biri uning tayyorlanish usulidir. Dumaloq shakldagi nonning chetlari nisbatan qalin, o‘rtasi esa maxsus naqshlar bilan bezatiladi. Non yuziga kunjut sepilishi ham unga o‘ziga xos ta’m va xushbo‘ylik beradi. Xamirni qorishdan tortib, uni tindirish, shakl berish va tandirga yopishgacha bo‘lgan har bir jarayon nonvoydan tajriba va mahorat talab qiladi.

Ayniqsa, tandir Samarqand nonining betakror ta’mida muhim o‘rin tutadi. Qizigan tandir devo-

riga yopishtirilgan xamir qisqa vaqt ichida yuqori harorat ta'sirida pishib, tillarang tusga kiradi. Tandirning harorati, nonning tandir devoriga to'g'ri joylashtirilishi va pishirish vaqti uning sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Bu jarayon ko'p yillik tajribaga ega nonvoylar uchun odatiy bo'lib ko'rinsa-da, xavfsizlik nuqtayi nazaridan doimo e'tibor va ehtiyotkorlikni talab etadi.

Chunki ochiq olov, yuqori harorat va gaz jihozlari bilan bog'liq har qanday jarayonda yong'in xavfi mavjud. Ayniqsa, xonadonlarda tandir yoki gaz plitasidan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga beparvo munosabat turli ko'ngilsiz hodisalarga sabab bo'lishi mumkin. Tandir atrofi yonuvchan buyumlardan xoli bo'lishi, olov manbasi qarovsiz qoldirilmasligi, gaz jihozlarining texnik holati muntazam nazorat qilinishi zarur.


Samarqand viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tomonidan aholi o'rtasida yong'inlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik va targ'ibot-tushuntirish tadbirlari muntazam olib borilmoqda. Bunday tadbirlarda xonadonlarda yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, gaz va elektr jihozlaridan to'g'ri foydalanish, tandirlarni xavfsiz joylashtirish hamda bolalarni ochiq olovdan uzoq tutish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.



Zero, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish faqat favqulodda vaziyatlarning oldini olish chorasi emas, balki oilamiz, mol-mulkimiz va eng muhimi, inson hayotini asrashning muhim shartidir. Bir necha daqiqalik ehtiyotsizlik katta talafotlarga olib kelishi mumkin. Shu bois tandir yoqish, non yopish yoki boshqa maishiy yumushlar vaqtida ham xavfsizlik talablarini unutmaslik lozim.

Milliy an'analarimizni asrab-avaylash ularni xavfsiz tarzda davom ettirishni ham taqozo etadi. Samarqand nonini tayyorlash san'ati asrlar davomida shakllangan bo'lsa, bugungi avlodning vazifasi bu an'anani nafaqat davom ettirish, balki xavfsizlik madaniyati bilan uyg'unlashtirishdir.

Samarqand noni – xalqimizning tarixini, mehnatini va mehmondo'stligini o'zida mujassam etgan bebaho milliy qadriyat. Bugun u milliy "tashrif qog'oz"larimizdan biriga ham aylangan. Uning tandirdan taralgan xushbo'y hidi esa asrlar osha davom etib kelayotgan an'analarimizdan darak beradi. Ushbu an'anani asrab qolish, xonadonlarimizda fayz va barakani ta'minlash bilan birga, yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilish ham har birimizning mas'uliyatimizdir.



Ilhom BOQIYEV,
Samarqand viloyati FVB
Axborot xizmati boshlig'i,
kapitan

BADIA

Men sevgan daryoning ovozi



(Ustozimiz O‘zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdiyevani eslab...)

Teraklarning endigina nish urgan och yashil barglari bahor shabbodasida tovlanib, masrur titrab turgan kezlar edi. Kosmonavtlar metro bekatidan chiqib biz havaskor shoira qizlar she’r o‘qib ketyapmiz:

So‘zlamog‘im kerak men sizni,
Sizlamog‘im kerak men sizni.
Qay bog‘larda yozarkansiz barg,
Izlamog‘im kerak men sizni.

Inson yuragini savollar kuydirgan kezlarda, hali o‘zligini topa olmay sarsona o‘rtangan lahzalarda “Suyanch tog‘lari” ni izlab qoladi. Bolaligimiz bor ekan, to‘g‘ridan to‘g‘ri kirib borsak kulib chiqqan, bag‘rini ochgan ustozimizning she’rdan boshqa tashvishi yo‘q ekanligiga, biz nima deb savol bersak, albatta, javob topib berishlariga, har birimizning dardimizni tinglab maslahat berishlariga shu qadar ko‘nikib qolgan edikki...

Chindan ham ustoz bilan qachon suhbatlashmaylik, taqdiridagi har kechmishni qaysidir ko‘ngil odamining, shoiru yozuvchining kechmishidagi chigalliklar va ko‘ngilsizliklar bilan bog‘lar, ular bu sinovlarga qanday bardosh berganlarini mag‘rur turib so‘zlar edilar. Keyingi paytlarda barcha tahririyatlaru adabiy davralarda chetlashtirilib, uy qamog‘iga hukm qilingan shoiraning bu qadar baland ruhiyatidan, matonatidan ko‘zlarimizga yosh kelar edi. Beixtiyor Shavkat Rahmonning mana bu misralarini ovoz chiqarib o‘qiy boshlaganimizni sezmay qolardik:

Baland daraxtlar bor, qulaganda ham
hech kimga aytmaslar qiynoqlarini.
Hech kimsa eshitmas, eshita olmas
baland daraxtlarning ingroqlarini...

Bizning bu daldamizdan opaning chehrasi yorishib, bizni mahkam bag‘riga bosar: “Qizlar, yuringlar, gulu maysalar isi kezayotgan shu bahor havosidan to‘yib-to‘yib hidlab, suhbatimizni terakzorda davom ettiraylik”, derdi.

Terak barglari shivirlagan yo‘lakdan ketib borar ekanmiz, ustoz o‘sha paytda bo‘layotgan qancha to‘siqlaru tanqidlarga, mish-mishlaru g‘iybatlarga qaramay qadlarini raso tutib, yo‘l-yo‘lakay yorug‘ yuz bilan she’r o‘qib borar edi. Uylari atrofida kezib yurgan maxsus xizmat xodimlarining opani ko‘rib yugurib kelishi va alohida ehtirom bilan salom berishini ko‘rib g‘ururlanib ketardik. Axir ular ham sezarkan-da ruhiyati yuksak insonni bu dunyoning mayda tashvishlari, ikir-chikirlari ega olmasligini deya quvonardik.

Men shu tuproq kuychisiman, kim aytar: “Tinar!
Qaysi bir kun gullagan shox misoli sinar”.
Sinsam agar, yaratmoqdan tolsa tafakkur,
Milt-milt o‘cha boshlasa gar yuragimda qo‘r,
Qalam tushsa qo‘llarimdan yetmay bardoshim,
Fikrlarning shiddatidan toliqsa boshim,
Bir oh tortib o‘zni yana qayta tiklayman,
Men shunday, ha, singanda ham kuylovchi nayman!

Bunday misralarni eshitgan biz shogirdlar yanada ruhlanib ketar, har birimiz bisotimizdagi eng yangi misralarimizni tezroq o‘qib, ustozning munosabatini bilgimiz kelar edi. Bu safar men o‘zim yozgan she’rlardan emas, tarjimalarimdan o‘qidim:

...Orzular....hayotda tushdek kechasiz,
Og‘ulab izma iz qalbni, umrni.
Behuda safsata, ontlar ichasiz,
Qani o‘zgartirsam, deyman barini.

Yashash o‘zi qiziq, qiziqdir bilmoq,
Illo, oy ostida barchasi ko‘hna.



"...Uning she'rlaridan daryoning ovozi keladi. Xalq esa daryosiz yasholmaydi."

Ibrohim G'afurov



O'lik ruhga hayot baxshida etmoq,
So'z qudrati bilan kechgan mo'jiza.
Ne so'zki ongimga oqdi nur bo'lib,
Ularni sharh etdim qalbimga doir.
Misralarim o'qib, asta jilmayib
Qabrtoshim o'yib yozdilar: "SHOIR..."

– O'lik ruhga hayot baxshida etmoq... – shivirlaydi Halima opa. – Qanday g'amgin va shu g'amginligida qalbingni nurlantiradigan misralar... Blokni men ham yaxshi ko'raman. Tarjima qilavering. O'zga ruhiyat mo'jizalaridan sizning-da qalbingiz ulgi oladi. Men esa... shu kunlarda yana Hazrat Yassaviyga oshnoman... Bu dunyo kulbasi qachon boshimizdan tuproq sochib to'kilib ketishini hech birimiz bilmaymiz. Biroq qalbimizdagi e'tiqod nuri, asl ishq javohiri bizni har qanday vaziyatda omon saqlagay... Bu dunyoning falokatlari-yu u dunyoning xavotirlari – barcha-barchasi Allohni tanigan bandalar uchun hech narsa emasdir.

Ustozning so'zlaridan ko'z o'ngimizda ko'hna bir kenglik-lar, yangi bir obrazlar jonlana boshlaydi. Halima opa yana o'ktam ovozda misralarni yod-dan o'qiy boshlaydi:

Men – benavo, chah-chahidan ayrilgan,
Yassaviyday hamrohidan ayrilgan,
Bor quvonchi, bor ohidan ayrilgan,
Taqir sahro, qurib qolgan dil bo'ldim.

Dardlarimni terib tortaman simga,
Arosatda jon kelmoqda xalqumga,
Yassaviyni kimga oldirdim, kimga,
Avj pardada tildan qolgan til bo'ldim...

Ha, biz o'sha lahzalar um-rimizning eng go'zal onlari ekanligini, ustoz bizga so'zla-gan hayot xulosalari, saboqlari, sinovlari bir kuni bizlarni-da o'yga toldirishini, ijodkor ha-yoti aslida bir umrlik zahmat, bir umrlik sog'inch, bir umrlik mashaqqat ekanligini angla-maganmiz.

– Ayniqsa, ayol ijodkorga aslo oson bo'lmaydi, qizlarim, – derdilar Halima opa. – Biroq bu iztiroblarsiz ham hayot juda huvillab qoladi. Yarat-ganga mangu talpinish zavqi, mangu ishq yo'lidagi yorug' yo'l deb anglang o'z hayotin-gizni. Uvaysiy, Mohlaroyimdan boshlab qaysi bir ishq sohiba-sining ko'ngil nomalarini va-raqlasangiz, ana shu haqiqat-ni anglaysiz:

Mohlaroyim, chin oyim, ayting,
Hamon dardimiz cheka-sizmi?
Bizlar g'amdan to'kilgan payti,
Go'ringizda siz cho'kasiz-mi?
Nomard yursa qad kerib, suygun,
Mard tuproqqa bersa tushini,
Tun sizdanam qocharmi uyqu,
Yig'laysizmi bizga qo'shi-lib?..

...Har bahor o'sha suhbatlar, she'riy lahzalar, tengsiz saboq-larga boy damlarni sog'inib yo'lga tushaman. Kosmonavt-lar metrosidan chiqib atrofga ming alanglamay biz kezgan terakzorlarni topolmayman... "Har yaprog'i yurakday titrab turgan daraxt"ni izlayman, azizlar...

Muxtasar TOJIMAMATOVA,
shoira



“Kelaman, so‘z beraman...”

Inson xotirasi uning qancha yashaganini bilan emas, qanday yashagani bilan o‘lchanadi. Bu hayotda yuz yil yashab ham bir marta bo‘lsin insonlarga kori tegmay, izsiz o‘tib ketadigan odamlar va aksincha, kam umr ko‘rib ham yillar o‘tsin o‘lmas xotiralar qoldiradigan insonlar bor. Yaxshilik jasorat talab etadi. Jasorat esa unutilmaydi. Mustaqillik bayramida nafaqat yaxshi kunlar uchun shukrona keltirish, balki yaxshi kunlarimiz uchun xizmat qilgan, jonini fido qilgan mard insonlarni yod etish ham burchimizdir. Ana shunday mardona xizmat qilib, xalqning duosini olgan, bugun oramizda yo‘q bo‘lsa-da o‘chmas yodi bilan yaqinlari, safdoshlari qalbida yashab kelayotgan mard o‘g‘lonlarimizdan biri Javlonbek Niyozovdir. Fursatdan foydalanib, qahramonimizning umryo‘ldoshi xotiralarini e’tiboringizga havola qilamiz.

Ma’lumot uchun, Javlonbek Niyozov 1988-yil 13-oktyabrda Andijon viloyati, Oltinko‘l tumanida tug‘ilgan. Uch nafar farzandning otasi. Andijon viloyati FVB “UzKoramKo”, “O‘zavto-austem”, “O‘zerae Climate Control”, “O‘zHanWo”, “UzDongJu-Paint” MCHJ korxonalarida YOXB 1-KYOXQ bo‘linma komandiri sifatida faoliyat yuritgan. 2019-yil 25-oktyabrda Andijon shahridagi “DINAR TEXTILE” MCHJda sodir bo‘lgan yong‘inni o‘chirish vaqtida xizmat burchini bajarish chog‘ida qahramonlarcha halok bo‘lgan...

– Har doim ishga chiqib ketayotganlarida tirik qaytib keling, derdim. Chunki yong‘in bilan yuzma-yuz ishlash o‘lim bilan yuzma-yuzlashish degani edi men uchun, – deydi qahramonimizning turmush o‘rtog‘i Madina Niyozova. – Turmush o‘rtog‘im har doim erinmay, gapimga jahl qilmay, aksincha, mehr bilan “kelaman,

so‘z beraman” derdi. Bor yo‘g‘i o‘n yil birga yashagan bo‘lsak-da yuz yildan beri birga yashayotgandek bir-birimizni qadrlardik. Hozir ham xuddi ular yonimdadek his qilaman. Javlon akam o‘sha kuni oqshomgi sakkizda smenda payti bizga qo‘ng‘iroq qilib, ertalab 8 da uyga kirib borishini aytgandilar. Ular uyiga qaytdi. Faqat tirik holda emas...

Kichik qizimiz qirq to‘rt kunlik bo‘lgan kun tong saharda uyimizda uch-to‘rt odam yig‘ildi. Yosh ona emasmanmi, chaqaloqning chillasi chiqqani uchun qo‘ni-qo‘shni ko‘rgani chiqdimikin deb o‘yladim avvaliga. Jiddiy boqsam, hammaning nigohi tund, kayfiyati tushkun. Nima bo‘ldi, nega hamma yig‘lagudek bo‘lib turibdi, deya hammadan bir-bir so‘radim. Ammo hamma jim. Bir so‘z aytishga hamma ojiz. Oxiri qo‘shnilarimizdan biri ko‘zidagi yoshni mahkam tutgancha, dudilanib-dudilanib, og‘iz juftladi: Javlonbekni shifoxonadan olib kelishar ekan... hozir...

Shifoxona... nega, nima bo‘ldi ularga, deyman yuragim potirlab. Yiqilib tushibdi... deydi yana bir ayol ro‘molining uchini tishlab. Kechasi 10-11 larda yong‘in chaqiruvi kelib tushibdi, unga chiqqan Javlon olovni o‘chirish chog‘ida qattiqroq yiqilibdi, oyoq-qo‘llari sinibdi. Shunga hamma shunday xomush, deya izoh bergan bo‘ldi yana boshqa qo‘shnimiz.

Men uy ichiga kirib, qizimni kiyintirib hovliga chiqsam hovlida tumonat odam yig‘ilganini ko‘rib, yuragim yana shuv etdi. Hamma meni aldayabdi, Javlon akamga bir gap bo‘lgan, dadasiga boshqa bir gap bo‘lgan, deya yig‘lab yubordim. Er-xotin bir-birini sevsa bir-biriga nimadir bo‘lsa yuragi sezadigan bo‘lib ketar ekan. Hech kim menga bildirmasa ham men hammasini tushunib bo‘lgandim.

Shunday bo‘lsa-da bardam bo‘lishda davom etdim. Chunki ko‘zim bilan ko‘rmagunimgacha ishonmayman deb ahd qilgandim. Hozir dadasini tirik olib kelishadi, hamma uyalib qoladi degan umidda yo‘l qaray boshladim.

Uzoqdan bir guruh formalilar kelayotganini ko‘rib yuragimda allaqanday uchqun porladi. Shularning orasida turmush o‘rtog‘im borday tuyildi. Lekin yaqinroq kelganida ularning yo‘qligini ko‘rib yana chap ko‘ksim uvishdi. Ular kelib bolalarimning dadasi yong‘inni o‘chirish chog‘ida balandroq joydan yiqilib tushganini aytishdi, ammo o‘lganini aytishmadi. Ko‘p o‘tmay... shifoxonaga ketganlar keldi...



Hanuzgacha darvozamiz har ochilganida ularning kirib kelishlarini xotirlayman. Ko‘chada ovozlari eshtilib ketganday bo‘ladi, tushlarimda suhbatlashaman, xayolan yana gaplashaman. Yonimdan sira ketmagandek his qilaveraman. O‘lishlaridan bir kun avval shu ishda ishlamasangizchi, boshqa ish qilsangizchi degandim. Yuragim fojiani sezgan ekan deb o‘yladim keyinroq. Boya aytganimdek, er-xotin bir-birini sevsa ko‘p narsani ko‘ngli sezadigan bo‘lib ketar ekan. Ular esa “bu kasbga kirayotganda hamma narsaga tayyor holda, o‘limni tan olib, dadamga so‘z berib kirganman, so‘zimdan qaytmayman” deb koyigan bo‘ldilar. Turmush o‘rtog‘imdagi jasurlikni ko‘rib shod ham edim. Ha, bu qaysarlik emas, jasurlik. Axir yong‘inga tikka kirib borish, o‘zi o‘lib ketishidan ham qo‘rqmay odamlarni qutqarish faqatgina jasur odamlarga xos ish. O‘g‘lim ularday bo‘lib, katta bo‘lganida ota kasbini tanlasa sira qarshi bo‘lmayman.

Bugun turmush o‘rtog‘im oramizda yo‘q. Ammo xotirasi bilan hamisha barhayot. Bolalarimning kulgusida, dadasiga tortgan chehrasida ularni yonimda his qilaman doim. Qolaversa, qahramonning ayoli degan nom menga hamisha yashashga kuch bag‘ishlaydi...

Qahramonning turmush o‘rtog‘i
Madina NIYOZOVA fikrlarini
Yulduz O‘RMONOVA oqqa ko‘chirdi.

УМРИНИ ОДАМЛАР МУҲОФАЗАСИГА БАҒИШЛАГАН



ОЛИМ

Табиий офатлардан муҳофазаланишда, фалокатлардан камроқ зарар кўришда илмий текширувларнинг ўрни беқиёс. Изланишлар нафақат илм-фан учун, балки кундалик турмушимиз фаровонлиги учун ҳам хизмат қилади. Қолаверса, тадқиқотчи олимлар меҳнати билан қутқарувчилар нафақат фалокат пайти одамларга муваффақиятли ёрдам беришга, балки фалокат юз бермасидан у ҳақда инсонларни огоҳ этишга ҳам эришади. Қутқарувчилар билан ҳамкорликда, ҳамнафас фаолият олиб борувчи ана шундай илм-фан фидойиларидан бири бугун саҳифамиз меҳмони.

Таниқли геофизик олим, физика-математика фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси академиги Қаҳҳорбой Носирбекович Абдуллабеков 1942 йил 25 декабрда Тошкент шаҳрида ишчи оиласида таваллуд топган. 1948-58 йиллари Тошкент шаҳридаги 26-сонли ўрта мактабда ўқиган. 1958 йили Тошкент политехника институтининг Геология-қидирув факултетига ўқишга кириб, уни 1963 йили Тоғ инжинери-геофизиги мутахассислиги бўйича муваффақиятли тамомлаган. Айни пайтда ФА Сейсмология институтида бош илмий ходим сифатида фаолият юритиб келмоқда.

ФВВ тизимида узоқ йиллардан буён хизмат қилиб келаётган ходимлар қаҳрамонимизни яхши маслакдош сифатида билса, кўплаб ёш ходимлар яхши устоз деб билади. Бу инсон етиштирган мутахассислар ичида 4 та фан доктори, 10 та фан номзоди етишиб чиққан. Улар тайёрлаган мутахассислар ФВВ тизимида талайгина.

Суҳбатдошимиз умрини зилзилалар тадқиқотига бағишлаган ҳақиқий фидойи деб айтиш мумкин. Чунки Абдуллабеков 1968 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академиясининг Сейсмология институтида кичик илмий ходим, аспирант, катта илмий ходим, лаборатория мудири ва директор лавозимларида ишлаб келган. Эътиборлиси, мазкур институт тарихи 7 та директор кўрган бўлса, шулар орасида энг узоқ давр – 21 йил муассасани бошқарган раҳбар сифатида Абдуллабеков тарихда қолмоқда. Илк ишга кирган йиллари билан ҳисоблаганда, академик олим салкам 60 йилдан буён Сейсмология институтида ишлаётир. Қаҳҳорбой Абдуллабековнинг раҳбарлигида ва унинг бевосита иштирокида дунёда биринчи марта аниқланган бир қатор муҳим натижалар борки уларни эътироф этмаслик имконсиз. Хусусан, уларнинг йўл-йўриқлари билан:

- Ўзбекистон сейсмомагнит ҳодисаси жуда кенг кўламда тадқиқ этилиб, техноген ҳудудлар ва бўлиб ўтган кучли зилзилалар эпицентрларидаги ишлар, магнит майдонининг кутилаётган аномал ўзгаришларини назарий ҳисоблаш ва бошқалар ўрганилди.
- 1980 йил 10 декабрдаги Назарбек зилзиласининг эпицентрида магнит майдонининг афтершок жараёни билан боғлиқ бўлган аномал ўзгаришлари ажратилди.
- Магниметрик ва бошқа комплекс кузатувлар асосида Олой зилзиласи 6 соат



олдин айтиб берилди. Ушбу натижа бир нечта нуфузли халқаро журналларда чоп этилди.

· Зилзиланинг узоқ, ўрта, қисқа муддатли даракчиларини намоён бўлиш вақти ва магнитудаси орасидаги аниқланган боғланишларга асосланиб, зилзилалар тайёрланишининг 4 босқичли геофизик модели яратилди.

Бундай йирик илмий натижаларга мисоллар кўп. Яна шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, Қаххорбой Абдуллабеков ҳукумат топшириғи билан табиий офатлар натижасида юзага келган фавқулодда вазиятлар оқибатларини бартараф қилиш, қурилиш объектлари ҳолатини текшириш ва бошқа қатор тадбирларда иштирок этган. 50 дан ортиқ илмий-оммабоп асарлар муаллифи бўлган қаҳрамонимизнинг ишланмалари бугунгача кўплаб давлат ташкилотларига, хусусан, ФВВ га қурилиш меъёрлари ва қоидалари, методик ва ўқув қўлланмалар, зилзила вақтида киши ўзини қандай тутиши лозимлиги ҳақида эслатмалар ва бошқа кўринишларда тақдим қилинган.

– Фавқулодда вазиятлар вазирлигининг фахрийларга эътибори менга жуда ёқади, – дейди суҳбатдошимиз илиқ табассум билан. – Менга шу ёшимда ҳам ишга оламиз, келинг, бирга ишлаймиз, ҳамма шароитларга эга хона берамиз, хизмат машинаси ажратамиз дейишган. Аммо кўплаб таълим даргоҳларидаги маърузаларим сабаб қабул қила олмаганман. Умуман, ишлайман деган кексанинг шаштини қайтаришганини ҳали эшитмаганман бу тизимнинг.

Хизмат фаолиятимизда қутқарувчилар билан бевосита ҳамкорликда ишлаймиз. Фанлар академияси ва ФВВ нинг қўшма қарорига мувофиқ, ҳар ҳафта кузатув таҳлиллари кўриб чиқилади, муҳокама қилинади. Ишим аллақачон иккинчи уйимдай бўлиб кетган, – дейди академик.

Дарҳақиқат, зилзилашунос олим ўзи ҳам зилзилага гувоҳ бўлганмикан, қизиқдим. Ҳа, қаҳрамонимиз 1966 йил 26 апрельда содир бўлган Тошкент зилзиласига гувоҳ бўлган. Ўшанда у 24 ёшда эди.

– Тошкент зилзиласи бўлган пайтлари мен Нефт-газ институтида ишлар эдим. – дейди Абдуллабеков. – Ўша воқеадан сўнг зилзилаларни тадқиқ этишга, қандай бинолар силкинишда омон қолгани, қандайлари қулаб тушгани, одамларнинг руҳияти, ўзини тутиши кабиларни чуқурроқ ўрганишга бел боғладим. Ва бугунгача "Зилзиладан сақланиш мумкинми?" "Ер қобиғидаги электромагнит ҳодисалар", "Сейсмик фаол ҳудудларда геомагнит майдон вариациялари" "Зилзилаларни магниометрик усул билан башорат қилиш бўйича йўриқнома", қолаверса, оддий аҳоли учун содда тилда ёзилган бир нечта қўлланмалар ишлаб чиқдим. Тошкент зилзиласидан кейин 1103 та ер силкиниши – афтершок ҳолатлари кузатилган. Бу воқеа зилзилалар бўйича чуқур тадқиқот олиб боришимга сабаб бўлган муҳим ҳодисалардан бири бўлган деб айта оламан.

Маълумотларга қараганда, дунё бўйича энг кўп зилзилалар Тинч океани атрофида (85 фоиз) содир бўлар экан. Айниқса, океанга яқин мамлакатларда зилзила хавфи икки баробар юқори – ер силкиниши натижасида цунами келиб чиқиши мумкин. Аммо бугун аксарият сейсмик ҳудудлар, айниқса, узоқ шарқ мамлакатлари зилзиладан чўчимай қўйган. Бундай офат юз бергудай бўлса ҳам кам талафот кўради. Нега? Чунки муҳофаза чораларини аҳоли аллақачон пухта ўзлаштириб бўлган. Бизнинг аҳолида ҳам ана шундай пухта билим ва кўникма шакллантириш мақсадида олимлар ва қутқарувчилар биргаликда меҳнат қилишаётир. Бу йўлда Қаххорбой Абдуллабеков каби касб фидойиларининг бой тажрибаси муҳим дастак вазифасини ўтайди.

Юлдуз ЎРМОНОВА
суҳбатлашди.



Ушбу саҳифа фахрийларимиз таклиф ва илтимосларига биноан кирилл алифбосида тайёрланди.

TIZIMDA *Ayollar o‘rni* VA NUFUZI



Ayni zamonaviy dunyoda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi roli tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgani quvonarli. Maqolamiz orqali ularning jamiyat va davlat boshqaruvi rivojiga qo‘shgan hissasi borasida o‘z mulohazalarimizni bildirib o‘tishga ahd qildik.

An’anaviy qadriyatlar jadal rivojlanayotgan jamiyat bilan uyg‘unlashgan O‘zbekiston sharoitida xotin-qizlarning FVV tizimiga integratsiyalashuviga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu nafaqat mazkur bo‘lim faoliyati samaradorligini oshirishga yordam beradi, balki ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning garovidir.

Ayollarning FVV dagi ishtirokining moliyaviy-iqtisodiy jihatlarini o‘rganish, ularning kasbiy rivojlanishi va martabasining o‘sishi uchun mumkin bo‘lgan to‘siqlarni hamda rag‘batlantirib borish yo’llarini aniqlash imkonini beradi. Bu boradagi kamchiliklar va erishilgan yutuqlar tahlili mazkur sohada xotin-qizlarning ahvolini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishga asos bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, xotin-qizlarning oila va jamiyatdagi o‘rni muhimligiga alohida urg‘u berilishi jamiyatning barcha a’zolariga teng imkoniyatlar yaratish maqsadida, ularni oiladan tortib davlat tashkilotlarigacha qo‘llab quvvatlashni zarur deb hisoblaymiz. Davlatimiz tomonidan gender tengligi va ijtimoiy adolatni ta’minlashda ayollarning tabiiy ofatlarni boshqarishdagi ishtirokini hamda moliyaviy mablag‘larni iqtisod qilishdagi faoliyatini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan. Bu, o‘z navbatida, har qanday davlatning barqaror rivojlanishining asosiy omili bo‘lgan xotin-qizlar salohiyatidan to‘liq foydalanish imkonini beradi.

O‘zbekistonda favqulodda vaziyatlarda aholiga tez va samarali yordam ko‘rsatishga qodir xizmatlarga ehtiyoj ortib borayotgani dunyoning umumiy tendensiyalarini aks ettiradi. Shu jumladan, texnogen va ekologik xavflarning o‘sishi, nazoratsiz shaharlashuv bilan bog‘liq muammolar mavjud. Xodimlarning malakasi va professionalligi jamiyat xavfsizligi va farovonligiga bevosita ta’sir qiladi. Xavf tug’dirayotgan shoshilinch sharoitlarda odamlarga yordam berish qobiliyati, maxsus tayyorgarlik, stressga qarshilik va jismoniy chidamlilik qutqaruvchilarning asosiy fazilatlari hisoblanadi.

Butun dunyoda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham yuqori jismoniy faollik bilan bog‘liq va hayot uchun xavf tug‘diruvchi kasblar an’anaviy ravishda erkaklarniki hisoblangan. Ammo bugungi kunda jinsi, yoshi yoki etnik kelib chiqishiga asoslangan chegaralar xiralashgani sababli, kasbiy sohada gender ajratishni yo‘q qilishga intilish mavjud.

Keyingi paytlarda O‘zbekiston ayollari qat’iyat va mas’uliyat talab qiladigan “erkak” kasblarini tobora ko‘proq tanlamoqda. Bu tendensiya hukumat tuzilmalariga, jumladan, ayollar tobora ko‘proq ro‘l o‘ynay boshlagan xavfsizlik kuchlariga ham tegishli. O‘zbekiston FVVda xizmat ko‘rsatishda gender tengligi tamoyili gender tengligining

zamonaviy tendensiyalarini aks ettiruvchi va xalqaro standartlarga mos keladigan qonunchilikda mustahkamlangan standartdir. Shu o‘rinda, Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisininig 2022-yil 27-aprel kunidagi KQ-340-sonli qaroriga asosan “Yil ayoli” hamda “Gender tengligi” bo‘yicha qaror qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV) tizimidagi xotin-qizlarning ahvolini o‘rganish natijalarini muhokama qilar ekanmiz, ularning ushbu sohadagi ishtiroki bilan bog‘liq bir qator muhim jihatlarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Masalan, tashkilotimizda muntazam ravishda o‘tkaziladigan ekskursiyalar, dam olish maskanlariga sayohatlar uyushtirish, oila a’zolari bilan madaniy hordiq chiqarish uchun kino, konsert, teatr tomoshalariga yuborish ham bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Xotin-qizlarimiz bu sohada oddiy rahbarlikdan tortib, yetakchi mutaxassislikkacha bo‘lgan turli lavozimlarni egallaydi. Qutqaruvchilar yoki o‘t o‘chiruvchilar kabi ba’zi ixtisoslashgan



ravishda erkaklar ustunlik qiladigan kasblarda ularning ulushi pastligicha qolayotgan bo‘lsa-da, ayollar bo‘limda boshqaruv, ta’lim, tibbiyot va moliya kabi sohalarda tobora ko‘proq qatnashmoqda.

Tizimda xotin-qizlarga ushbu o‘ta muhim sohaga salmoqli hissa qo‘shish imkonini beruvchi kasblarning keng doirasi mavjud. Biroq amalda ayollarning kamligi mavjud bo‘lib, bu ularning favqulodda vaziyatlarga to‘liq qo‘shilishi uchun to‘siq bo‘layotganini ko‘rishimiz mumkin.

Ochig‘ini aytadigan bo‘lsak, O‘zbekiston FVV tizimida ishlayotgan ayollar kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyati tufayli oila qurish qiyinroq. Shuningdek, madaniy me’yorlar va ijtimoiy umidlar ayollarning kasb tanlashida muhim rol o‘ynaydi. Misol uchun, ayollarning 65 foizi ijtimoiy bosim, ish va oilaviy mas'uliyatni muvozanatlashda kasb faoliyatini o‘sishi va rivojlanishiga ta’sir qiluvchi muhim omil sifatida ko‘rsatdi.

Sohadagi xotin-qizlarning faoliyati o‘rganilganda yanada kuchaytirishga arziydigan muhim jihatlar aniqlandi. Moliyaviy va iqtisodiy masalalar, jumladan, daromad barqarorligi va ijtimoiy kafolatlar ayollarning ushbu kasbiy sohani tanlashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirishni talab qiladi.

Kasbiy faoliyat va oilaviy majburiyatlarni uyg‘unlashtirishdagi qiyinchiliklar tegishli qo‘llab-quvvatlash choralari bilan bartaraf etilishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Sohadagi ayollarning qariyb 60 foizi ish va oilaviy mas’uliyatni uyg‘unlashtirishda qiynaladi. Shuningdek, fikrimizcha, ayollarning 80 foizining kasbiy o‘sishi va oila farovonligiga erishishda oila va jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini zarur deb hisoblaymiz.

2024-yildagi moliyaviy-iqtisodiy jihatdan kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, tizimda mehnat qilayotgan ayollarning 55 foizi barqaror daromad va ijtimoiy kafolatlar tufayli ushbu sohani tanlaydi. Biroq ishtirokchilarning atigi 20 foizi ish haqini boshqa sohalarga nisbatan ancha raqobatbardosh deb hisoblaydi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlarining 30 foizini ayollar tashkil etishiga qaramay, faqat 10 foizi yuqori boshqaruv lavozimlarini egallaydi. Shu bilan birga, tizimdagi ayol xodimlarning 75 foizi oliy ma’lumotga ega bo‘lib, bu kasbiy tayyorgarlik va malaka jihatidan salmoqli yutuqdir. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida ushbu tizimda 2,5 foiz ayollar faoliyat olib boradi, ulardan yuqori boshqaruv lavozimlarida deyarli yo‘q, oliy ma’lumotga ega ayollar 3 foizni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi FVV tizimida xotin-qizlarni rag‘batlantirish, martabasini oshirish hamda ijtimoiy va kasbiy moslashuvi jihatlarini yanada chuqurroq va har tomonlama o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu sohadagi, qo‘llab-quvvatlash va rivojlanish dasturlarini e’tiborga olib, gender tengligini ta’minlashga qaratilgan tashabbuslarni, jumladan, murabbiylik dasturlari, kadrlar tayyorlash va kasbiy mahoratni oshirish orqali rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, ayolning oila va jamiyatdagi o‘rni beqiyos. Zamonaviy o‘zbek ayoli bugungi kunda oilada mehribon ona, vafodor yor, saranjom oila bekasi bo‘lish bilan bir qatorda harbiy xizmatchi erkaklar bilan yelkama-yelka bo‘lib og‘ir, mas’uliyatli va sharafli sohada faoliyat yuritib kelayotgani tahsinga loyiq. Ko‘rsatkichlar ijobiy tomonga o‘zgarib borar ekan, ayollarning iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlardagi roli ham o‘sib borishi shubhasiz.

Ibodat RAHMONOVA,
iqtisodchi

MAHALLA INSPEKTORI – XALQ XIZMATIDA



Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri inson qadrini ulug‘lash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlashdan iborat. Bu jarayonda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xususan, ichki ishlar organlari xodimlarining zimmasiga katta mas’uliyat yuklanadi.

Qurolli Kuchlar tuzilmasi tarkibidagi xodimlar zimmasidagi belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq etishda mahalla institutining o‘z o‘rni bor, albatta. Chunki mahalla – insonning kundalik hayoti, oilaviy muhiti, quvonchi va tashvishlari bilan eng yaqin bog‘langan ijtimoiy maskandir. Shu ma’noda mahalla inspektori nafaqat jamoat xavfsizligini ta’minlovchi huquqni muhofaza qiluvchi xodim, balki aholi bilan bevosita muloqot qiladigan, ularning muammolarini eshitadigan va yechim topishga ko‘maklashadigan mas’ul shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

XALQ ISHONCHI – ENG KATTA MAS’ULIYAT

Xizmat mahalla inspektori uchun faqat huquqbuzarliklarning oldini olish yoki jamoat tartibini saqlashdan iborat emas. Uning vazifasi aholi bilan profilaktik muloqot olib borish, oilalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni o‘rganish, yoshlar bilan ishlash, huquqiy madaniyatni oshirish, turli salbiy illatlarning oldini olish va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash kabi keng qamrovli ishlarni o‘z ichiga oladi.

Bunda har bir profilaktik suhbat, murojaat va uchrashuv inson taqdiriga ta’sir qilishi mumkinligini xodim chuqur anglashi lozim.

Bugungi kunning eng muhim talablaridan biri – ma’naviy yuksak, vatanparvar, bilimli va salohiyatli kadrlarni shakllantirishdir. Yuksak ma’naviyatli inson fidoyilik, jasorat, mardlik, bag‘rikenglik, Vatanni sevish, milliy qadriyatlarni qadrlash, buyuk ajdodlar merosidan faxrlanish kabi fazilatlari bilan ajralib turadi.

Haqiqiy vatanparvarlik – Vatan haqida balandparvoz so‘zlar aytish bilan emas, balki uning taraqqiyoti va tinchligi uchun halol mehnat qilish, qonunga rioya etish, xalq manfaatini ustuvor

qo'yish va zimmadagi vazifani vijdonan bajarish bilan namoyon bo'ladi.

Qurolli Kuchlar tarkibida faoliyat olib borayotgan xodim uchun Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish oliy burch hisoblanadi. Bu ezgu g'oya har bir xizmatchining kundalik faoliyati mazmuniga aylanishi kerak. Chunki xizmat libosi ortida, eng avvalo, xalq ishonchini oqlashi lozim bo'lgan inson turadi.

MA'NAVIY IMMUNITET VA ZAMONAVIY TAHDIDLAR

Globallashuv jarayonlari jamiyat hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatayotgan bugungi davrda axborot makonidagi o'zgarishlar ham inson dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, yoshlarni turli yot g'oyalar, zararli axborotlar va ma'naviy tahdidlardan himoya qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shunday sharoitda ichki ishlar organlari xodimlarining o'zi ham yetarli bilim va mustahkam ma'naviy immunitetga ega bo'lishi zarur. Chunki boshqalarga to'g'ri yo'l ko'rsatish uchun insonning o'zi bilimli, ma'rifatli va mustahkam hayotiy qarashlarga ega bo'lishi kerak.

Ma'naviy immunitetni shakllantirishda milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, milliy madaniyat, adabiyot va san'atning o'rni beqiyos. Shuningdek, internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini oshirish, axborotni tahlil qilish va uning ishonchliligini baholay bilish ham zamonaviy xodim uchun zarur ko'nikmalardan biridir.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni faqat tadbirlar o'tkazish bilan cheklab qo'ymaslik lozim. Bu jarayon xodimning kundalik xizmat faoliyati bilan uyg'unlashgan, uzluksiz va tizimli tarbiyaviy jarayon bo'lishi kerak.

MAHALLA – PROFILAKTIKANING ENG MUHIM MAYDONI

Bugungi kunda mamlakatimizda mavjud mahallalarning barchasida faoliyat qoniqarli, deb bo'lmaydi. Shu bois huquqbuzarliklarning oldini olishda eng samarali usullardan biri – muammoni oqibat yuzaga kelgandan keyin emas, balki uning ilk belgilari paydo bo'lgan paytda aniqlash va bartaraf etishdir.

Buning uchun mahalla inspektorlari aholi bilan yaqin hamkorlik qilishi, fuqarolar, mahalla faollari, ta'lim muassasalari, yoshlar tashkilotlari va boshqa jamoat institutlari bilan hamjihatlikda ish olib borishi zarur. Oilaviy nizolar, yoshlar o'rtasidagi muammolar, ishsizlik, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar bilan bog'liq masalalar, huquqiy savodxonlikning pastligi kabi omillar o'z vaqtida aniqlanib, tegishli mutasaddilar bilan hamkorlikda bartaraf etilsa, ko'plab huquqbuzarliklarning oldini olish mumkin.

XALQ BILAN MULOQOT – SAMARALI XIZMAT MEZONI

Zamonaviy xodim uchun kasbiy bilim qanchalik muhim bo'lsa, muloqot madaniyati ham shunchalik ahamiyatlidir. Fuqaro xodim bilan uchrashganda, avvalo, uning muomalasi, munosabati va adolatli yondashuvini his qilishi kerak.

Fuqaroning murojaatini tinglash, uning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, qonun talablariga qat'iy amal qilish – xalq ishonchini mustahkamlashning eng muhim omillaridandir.

Zero, huquq-tartibot idoralarining nufuzi faqat xizmat natijalari bilan emas, balki xalq bilan munosabatlar madaniyati bilan ham belgilanadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, har bir fuqaro, qaysi lavozimda ishlashidan qat'i nazar, avvalo, tarbiyachi ekanini, farzandlarimiz taqdiri uchun har birimiz mas'ul ekanimizni anglashi zarur.

Chunki mahalla inspektori har kuni o'nlab, ba'zan yuzlab insonlar bilan muloqot qiladi. Uning har bir so'zi, har bir munosabati fuqaroda davlat va huquq-tartibot tizimi haqida muayyan tasavvur uyg'otadi.

Bugungi murakkab va tez o'zgarayotgan Qurolli Kuchlar organlari tizimi oldiga yangi talablarni qo'ymoqda. Zamonaviy xodim nafaqat qonunlarni yaxshi biladigan, balki yuksak ma'naviyatli, vatanparvar, bilimli, keng dunyoqarashli, inson taqdiriga befarq bo'lmagan shaxs bo'lishi lozim.

Ayniqsa, mahalla inspektori faoliyatida xalq bilan yaqin muloqot, profilaktika, ishonch va hamkorlik asosiy mezonga aylanishi zarur. Chunki xavfsizlik va osoyishtalikni ta'minlash faqat huquqbuzarlikka qarshi kurashishdan emas, balki jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishdan ham boshlanadi. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, vatanparvarlik, kitobxonlik, huquqiy madaniyat, kasbiy bilim va xalq bilan muloqot madaniyati bir-birini to'ldirgandagina ichki ishlar organlarida haqiqiy zamonaviy xodim qiyofasi shakllanadi.

Binobarin, Vatanga sadoqat, xalqqa xizmat va qonunga hurmat – mahalla inspektorining kasbiy faoliyatini belgilab beruvchi uch muhim tamoyildir. Ana shu tamoyillar asosida ishlagan xodimgina xalq ishonchini qozonadi va o'z kasbiy burchini sharaf bilan ado etadi.

Sarvinoz ASHUROVA,
Ichki ishlar vazirligi
akademiyasi dotsenti v.b.



IQLIM O‘ZGARISHI – GLOBAL HODISA

AVVALO, IQLIM O‘ZGARISHLARI BIR-IKKI YILDA YUZAGA KELADIGAN HODISA EMAS. SAYYORAMIZ TARIXIGA NAZAR TASHLASAK, UNING TEGRASIDAGI HARORAT MUNTAZAM RAVISHDA O‘ZGARIB TURGANIGA GUVOH BO‘LAMIZ. USHBU JARAYONLAR KO‘PLAB JONIVORLAR YOKI O‘SIMLIKLARNING YO‘QOLIB KETISHI, O‘ZGACHA HAYOT TARZI, YANGICHA TIRIKLIK BELGILARI PAYDO BO‘LISHIGA ASOS BO‘LGAN VA O‘ZIGA XOS ZAMIN YARATGAN.

Shuni ta’kidlash zarurki, iqlim o‘zgarishi natijasida yuz berayotgan tabiiy ofatlar butun insoniyatni o‘ylantirayotgan eng dolzarb muammolar sirasiga kirib, iqlim o‘zgarishi insonlar hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois iqlim o‘zgarishlari jahon hamjamiyati tomonidan eng global hodisa, tahdidlardan biri, deb tan olingan.

Iqlim atamasi grekcha “klima” – qiyalik ma’nosini, ya’ni quyosh nurlarining yerga tushgan paytida og‘ish-tushish qiyaligini anglatadi. Bu atama yunon astronomi Gipparx (mil.avv.160-125–yillar) tomonidan fanga kiritilganligi ma’lum.

O‘zbekiston Yevroosiyo materigining markaziy qismida, dengiz va okeanlardan ancha olisda joylashgan. U janub va sharq tomondan baland tog‘lar bilan o‘ralgan bo‘lib, 80 foiz cho‘l va chala cho‘l zonalariga to‘g‘ri keladi. Respublikamizning chekka janubiy qismlari subtropik iqlim, shimoli mo‘tadil iqlim mintaqalarida joylashgan. Yoz vaqtida kuchli quyosh radiatsiyasi ta’sirida qizib ketgan cho‘llar ustida tropik to‘zon havo massasi shakllanadi. Havoning o‘rtacha oylik harorati 28-30 °c ni tashkil qilsa, eng yuqori ko‘rsatkichlari 50 °c gacha yetadi.

Qishda iqlim ikki havo oqimining o‘zaro ta’siri bilan belgilanadi. Shimol va g‘arbdan hududga sovuq havo qarshiliksiz kirib keladi. O‘zbekiston hududi 3 iqlim zonasiga bo‘linadi: cho‘l zonasi, tog‘ oldi (adir) va tog‘ zonalari. Orol va Ustyurt okruglarini hisoblamaganda, respublikaning tekislik qismida beqaror qor qoplami va yumshoq qishlar bo‘lib turadi. Shuning uchun respublikamizning aksariyat hududlarida o‘simliklarning rivojlanishi butunlay to‘xtamaydi.

O‘zbekistonning iqlimi ham sayyoramiz iqlimiga o‘xshab davriy ravishda o‘zgarib, turlanib turadi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, Yer shari iqlimi o‘zgarishining asosiy belgilovchisi haroratdir. So‘nggi yillarda haroratning o‘sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Respublikamizning katta qismida sovuqsiz davr taxminan 200 kunni tashkil qiladi: Ustyurtda 160 kundan Sherobodda 280 kungacha. Atmosferada SO2 miqdorining ortishi O‘zbekistonda haroratning ko‘tarilishi, atmosfera sirkulyatsiyasining o‘zgarishi anomal atmosfera hodisalari – toshqin, sel, do‘l, garmsellarni ko‘paytiradi.

Qurg‘oqchilik bizning sharoitda o‘ta xavfli bo‘lib, u daryolar oqimini kamaytiradi, sizot suvlar darajasini pasaytiradi. Natijada suv resurslarining yetishmasligini keltirib chiqaradi. Buning natijasida aholining suv bilan ta’minlanishi yomonlashadi, qishloq xo‘jalik ekinlari mahsuldorligi pasayadi, gidroelektroenergiya ishlab chiqarish kamayib boradi.

Iqlim o‘zgarishida asosiy sabab bo‘lib turgan manbalar uylarni isitadigan, yoritadigan, mashina va texnika ishlaydigan asosiy energiya manbai bo‘lgan qazilma yoqilg‘i neft, tabiiy gaz, ko‘mir va uran hisoblanadi. Elektr energiyasi, issiqlik va boshqa energiya turlarini olish uchun neft, gaz, ko‘mir yoqamiz. Qazilma yoqilg‘i ishlatilganda va boshqa ishlab chiqarish jarayonlari atmosferaga uglerod qo‘shoksidi(SO_2) metan, azot chala oksidi va boshqalar chiqariladi. Bu gazlar isigan yer yuzasidan infra qizil nurlarini fazoga chiqarmaslik xususiyatiga egadir. Yer yuzidagi gaz chiqindilarining eng ko‘p foizi AQSHdan chiqishi kuzatilgan. Dunyoda havoga eng ko‘p gaz chiqaradigan davlat esa Xitoydir.

Haroratning ko‘tarilishi ayrim tropik zararkunandalar va kasallik tarqatuvchi organizmlarning bostirib kirishiga ham olib kelishi mumkin. Yovvoyi hayvon va o‘simlik turlari o‘zlarida evolyutsion mustahkamlangan qarshilik ko‘rsatish imkoniyati yo‘qligi sababli ularga bas kelolmay qolishlari ehtimoli bor.

Shuningdek, iqlim o‘zgarishi oziq-ovqat xavfsizligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi. Hisob-kitoblardan kelib chiqib, 2050 yilga borib, makkajo‘xori, guruch va bug‘doy yetishtirish hajmi 25 foizgacha qisqarishi bashorat qilinmoqda.

O‘zbekistonda ham tabiatni asrab-avaylash, iqlimni yaxshilash borasida yo‘l qo‘yilgan xatolarni bartaraf etish choralari ko‘rilmoqda. Alohida maxsus dastur va loyihalar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi. Jumladan, Orol dengizini suv bilan to‘ldirish, atrofidagi ekologik vaziyatni o‘nglash, zararli va zaharli vositalardan ehtiyotkorlik bilan me’yorida foydalanish yo‘lga qo‘yildi. Melioratsiya va sug‘orish, sho‘r yuvish va yerlarni quritish, sun’iy yomg‘irlatish tizimlari, tozalash inshootlari ishlari tartibga solindi. Suv omborlari, shaharlardagi sanoat korxonalari faoliyati takomillashtirilib, ularni va turar-joylarni oqilona joylashtirish, aholiga qulayliklar yaratish, daraxtzor va o‘rmonzorlarni kengaytirish, bulut va tumanni haydash usullarini qo‘llash tadbirlari kuchaytirilmoqda. Ayni jarayonda barchamiz birgalikda kurash olib borishimiz, ya’ni o‘zimiz istiqomat qilayotigan hududlarda ko‘proq mevali va manzarali daraxtlarni ekishimiz, farzandlarimizda ham tabiatga bo‘lgan oqilona munosabatni shakllantirishimiz muhimdir.







Jamshid MAHMUDOV,
Surxondaryo viloyati Denov tuman IIB YHXB inspektori

HARBIY OILALARDAGI MA'NAVIY BARQARORLIK –

VATAN TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORI



Bugungi globallashuv sharoitida davlat xavfsizligini ta'minlash faqat zamonaviy texnika va qurol-aslahaga emas, balki inson omiliga ham bevosita bog'liq. Harbiy xizmatchining kasbiy mahorati, intizomi, mas'uliyati va favqulodda vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish qobiliyati uning jismoniy tayyorgarligi bilan bir qatorda psixologik barqarorligiga ham tayanadi. Ushbu barqarorlikning eng muhim manbalaridan biri esa – oiladir.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning mehnat faoliyati oddiy kasb emas. Ular yong'inlarni bartaraf etish, tabiiy ofatlar oqibatlarini tugatish, texnogen avariyalarda qutqaruv ishlarini amalga oshirish, inson hayotini saqlab qolish kabi o'ta mas'uliyatli vazifalarni bajaradilar. Bunday xizmat yuqori darajadagi emotsional zo'riqish, xavf hissi, uzoq vaqt davom etadigan navbatchilik va oiladan uzoqda bo'lish kabi omillar bilan kechadi.

Oila – shaxs psixologik barqarorligining birinchi maktabi

Psixologiya fanida oila inson shaxsi shakllanadigan dastlabki ijtimoiy muhit sifatida e'tirof etiladi. Insonning hissiy munosabatlari, muloqot madaniyati, muammolarni hal qilish uslubi va stressga munosabati, avvalo, oilada shakllanadi. Shu sababli oila nafaqat tarbiya maskani, balki shaxsning psixologik immunitetini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institut hisoblanadi.

Amerika Psixologlar Assotsiatsiyasi hamda AQSh harbiy psixologiya markazlari tomonidan o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlarda oilaviy qo'llab-quvvatlash yuqori bo'lgan harbiy xizmatchilarda:

- kasbiy charchash kamroq;
- depressiv holatlar pastroq;
- xizmatga sodiqlik yuqoriroq;
- favqulodda qaror qabul qilish tezroq;
- posttravmatik stress rivojlanish ehtimoli kamroq ekani aniqlangan.

Psixologiyada bu holat "rezilyentlik" deb ataladi. Zamonaviy tadqiqotlarda "rezilyentlik" tushunchasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu shaxsning og'ir hayotiy vaziyatlar, kuchli stress yoki yo'qotishlardan keyin o'zining ruhiy muvozanatini qayta tiklay olish qobiliyatini anglatadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday qobiliyatning eng muhim tashqi manbalaridan biri – oila a'zolarining mehri, ishonchi va emotsional qo'llab-quvvatlashidir.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida ishlovchi harbiy xizmatchilar uchun esa bu omil yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u har kuni xavf, noaniqlik va yuqori mas'uliyat bilan bog'liq sharoitda faoliyat yuritadi. Bunday vaziyatlarda xizmatchi o'zini yolg'iz emasligini his qilishi, uni qo'llab-quvvatlaydigan oilasi borligini bilishi uning ichki ishonchini mustahkamlaydi.

Sharq mutafakkirlari ham inson kamolotida oilaning o'rniga alohida e'tibor qaratganlar. Abu Nasr Forobiy inson baxti jamiyat va oiladagi o'zaro hamjihatlik bilan ta'minlanishini ta'kidlagan bo'lsa, Abu Ali ibn Sino oiladagi mehr-oqibat va o'zaro hurmatni inson salomatligi hamda ma'naviy kamolotining muhim sharti sifatida baholagan. Bu qarashlar bugungi zamonaviy psixologiya ilmiy xulosalari bilan hamohangdir.

Demak, oiladagi baxtli muhit shaxsning ichki xotirjamligini ta'minlaydi, ichki xotirjamlik esa xizmat samaradorligini oshiradi. Bu zanjirning yakuniy natijasi esa jamiyat barqarorligi va millat xavfsizligiga xizmat qiladi.

Amerikalik tadqiqotchi Jon Gottmanning uzoq yillik kuzatuvlari oiladagi o'zaro hurmat, samimiy muloqot va minnatdorlik munosabatlarning barqarorligini ta'minlashini ko'rsatadi.

Harbiy xizmatchi uchun esa bu

- diqqatning jamlanishi;
- qaror qabul qilishda ishonch;

- xizmat intizomining oshishi;
- jamoada ijobiy munosabat;
- xavfli vaziyatlarda hissiyotlarni boshqara

olish kabi jihatlarda namoyon bo'ladi.

Oiladagi doimiy mojarolar esa insonning kognitiv resurslarini kamaytiradi. Natijada charchoq, xavotir va xizmatda xatolar ehtimoli ortishi mumkin.

Harbiy oiladagi muhit va xizmat samaradorligi

Favqulodda vaziyatlar vazirligi harbiy xizmatchilarining kasbiy faoliyati boshqa ko'plab sohalardan o'zining yuqori psixologik yuklamasi bilan ajralib turadi. Yong'inni bartaraf etish, tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarda insonlarni qutqarish, xavfli hududlarda xizmat olib borish, qisqa vaqt ichida hayotiy muhim qarorlarni qabul qilish kabi vazifalar nafaqat yuqori kasbiy tayyorgarlikni, balki mustahkam ruhiy barqarorlikni ham talab qiladi.

Psixologiyada "kasbiy stress" tushunchasi xodimning mehnat jarayonida uzoq vaqt davomida kuchli emotsional va intellektual bosim ta'sirida qolishi bilan izohlanadi. Harbiy xizmatchilarda bunday holatlar tez-tez uchrashi mumkin. Agar mazkur bosim o'z vaqtida yengillatilmasa, emotsional charchash, xavotir, uyqu buzilishlari, asabiylik va kasbiy samaradorlikning pasayishi kabi holatlar yuzaga kelishi ehtimoli ortadi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning faoliyatida jamoaviy hamjihatlik ham muhim ahamiyatga ega. Ammo jamoadagi hamjihatlikning mustahkam bo'lishi ko'p jihatdan xizmatchining shaxsiy hayotidagi barqarorlik bilan ham bog'liq. Oilaviy muammolar ta'sirida yurgan insonning diqqati tarqoq bo'lishi, tez asabiylashishi yoki xavfli vaziyatlarda xatoga yo'l qo'yish ehtimoli ortishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, oiladagi psixologik muhitni mustahkamlash xizmat intizomini ta'minlashning ham muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Oilalarda psixologik barqarorlikni mustahkamlash: amaliy yondashuvlar

Psixologik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, oilada o'zaro hurmat va ishonch muhiti shakllangan harbiy xizmatchilar xizmat jarayonidagi emotsional bosimni yengilroq qabul qiladi. Ular muammoli vaziyatlarda o'zini boshqarish, hamkasblar bilan samarali muloqot qilish va favqulodda qaror qabul qilishda yuqoriroq natijalarni namoyon etadi. Bu esa xizmat sifatining oshishiga va aholi xavfsizligini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



O'zbekistonda oilaviy munosabatlar milliy qadriyatlar, o'zaro hurmat, mehr-oqibat va mas'uliyat tamoyillari asosida qurilgan. Mazkur qadriyatlar harbiy xizmatchilar oilalari uchun ham muhim ma'naviy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, xizmat xususiyati sababli uydan uzoq vaqtda bo'lish, navbatchilik yoki favqulodda chaqiruvlarning ko'pligi turmush o'rtog'i va farzandlardan alohida sabr, tushunish va qo'llab-quvvatlashni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, harbiy xizmatchilar oilalari bilan profilaktik ishlarni tizimli tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday ishlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- harbiy xizmatchilar va ularning turmush o'rtoqlari uchun oila psixologiyasi bo'yicha seminar-treninglar;
- stressni boshqarish va emosional o'zini nazorat qilish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar;
- yosh harbiy oilalar uchun psixologik maslahat xizmatlarini kengaytirish;
- xizmatchilar farzandlari ishtirokida ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlarini ko'paytirish;
- oilaviy muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan profilaktik dasturlarni joriy etish.

Ushbu choralar nafaqat xizmatchining psixologik holatiga, balki butun jamoada sog'lom ma'naviy muhit shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada xizmat intizomi mustahkamlanadi, kasbiy charchashning oldi olinadi va shaxsiy tarkibning xizmatdan qoniqish darajasi ortadi.

Harbiy xizmatchining xizmatdagi jasorati, mas'uliyati va fidoyiligi ko'p jihatdan uning oilasidagi ma'naviy muhit bilan bog'liq. Mustahkam oila insonning ruhiy barqarorligini ta'minlaydi, stressga chidamliligini oshiradi va kasbiy samaradorligini yuksaltiradi.

Favqulodda vaziyatlar tizimida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar uchun oila nafaqat shaxsiy baxt manbai, balki xizmat vazifalarini vijdonan bajarishga yordam beradigan muhim psixologik resursdir. Shu bois harbiy xizmatchilar oilalarini psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash, profilaktik dasturlarni kengaytirish hamda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash mamlakat xavfsizligi va barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Nargiza NURULLAYEVA,
Buxoro viloyati FVB
Axborot xizmati xodimi,
psixolog



O‘tgan asrning o‘rtalarida (1946-yil) ixtiro qilingan dunyodagi ilk kompyuter uskunasining og‘irligi salkam 30 tonna va hajmi chorakta futbol maydoniga teng bo‘lgan. Endi uni qo‘lingizdagi mo‘jaz smartfon (telefon ham mitti kompyuter) bilan solishtirsangiz, jarayon qanday takomillashuv bosqichlaridan o‘tgani oydinlashadi.

PO‘LATDEK MUSTAHKAM ANTIQA SUPURGI

Xuddi shunday bugun biz oddiy buyum sifatida qabul qiladigan har qanday mahsulot, dastavval aql bovar qilmas darajada murakkab yoki sodda, baxaybat va beo‘xshov, noqulay ko‘rinishda, shaklda taqdim qilingan. Masalan, televizor, avtomobil va hokazo.

Ayni hikoyamiz qahramoni hozircha mamlakat iqtisodiyotida tub burilish yasamagan, olamshumul ixtirosi bilan ilm-fanda inqilob ham qilmagan. Yoki o‘nlab ishchi o‘rni yaratib, million-milliardlab mablag‘larni aylantirayotgani ham yo‘q. Ammo uning maqsadi, harakati, qalbida jo‘sh urgan daxldorlik hissi, fuqarolik pozitsiyasi kelgusida boshqalar, xususan, shogird, farzand va davomchilari hayotiga ulkan muvaffaqiyat, mislsiz shuhrat va daromad kirib kelishiga sabab bo‘lsa, ne ajab.

Nukuslik 47 yoshli tadbirkor, “Hunarmand” uyushmasi a'zosi Po‘lat Boltaboyev turli plastmassa idish, xususan, “bakalajka”larni qayta ishlab xilma-xil buyumlar tayyorlay boshlaganida kulganlar ham topildi. Bu ishning kelajagi yo‘q deguvchilar ham bo‘ldi. Biroq Po‘latbek ortga chekinmadi. Mahsulotlarining sifati va soni ustida qunt bilan ishlashda davom etdi.

Bo‘lajak tadbirkor avval bozorda savdo-sotiq bilan shug‘ullanardi, keyin Nukus-Toshkent yo‘nalishida yo‘lovchi tashib, ro‘zg‘or tebratdi. 2020-yil pandemiya sabab bo‘lib, uyda o‘z ishini boshlashga qaror qildi. Kuymanib turli temir bo‘laklaridan qo‘lbola stanok yasadi, innovatsiya yo‘li bilan plastik idishlardan bir nechta turdagi antiqa supurgi tayyorlashni yo‘lga qo‘ydi. Buning uchun, albatta, turli manbalar, internet orqali videodarsliklar topib o‘rgandi, izlandi.

– Ko‘pchilik xonadonida tozalash ishlariga tabiiy yetishtirilgan supurgidan foydalanadi, – deydi Po‘lat Boltaboyev. – Lekin bu supurgilar tez yaroqsiz holatga keladi. Shu bois uy yumushlari uchun chidamli, bir martalik plastik idishlardan barqaror foydalanish mumkin bo‘lgan mahsulot o‘ylab topish ustida bosh qotirdim. Natijada plastik tasmalar tayyorlaydigan va ularni tegishli miqdorda egiluvchan hamda chidamli holatga keltirib beradigan uskuna yasashning uddasidan chiqdim. Uning yordamida changyutkich ilib ololmaydigan gardlarni ham tozalay oladigan, muhimi uzoq muddat xizmat qiladigan arzon supurgi yaratildi.

Hozirda hunarmand ustaxonasida plastik tasmalardan qayta ishlangan ushbu sifatli hamda hamyonbop supurgilarga aholi o‘rtasida talab va qiziqish katta. Qo‘shni viloyatlar va xatto Qozog‘istondan ham ushbu mahsulotga uzluksiz buyurt-



ma bor. Uning keng ommalashganiga sabab, Po'latbek avval talab va taklifni o'rganib, zamonaviy tilda aytganda mahsulotni marketing qildi. Dastlab bir nechta dona supurgini sotish uchun emas, undan foydalanuvchi, ya'ni ayollarning fikrlari va tavsiyalarini tinglash uchun bozorga chiqardi. Maslahatlarga ko'ra supurgining 15 santimetr qilib ishlangan bosh qismi 30-35, dastagining uzunligi esa 80 santimetrga yetkazildi. Supurgi beliga simdan belbog' ishlagan edi. U qo'lga jarohat yetkazar ekan. Shuning uchun belbog' plastmassa hom-ashyosiga almashtirildi. Natijada mahsulot hech bir e'tirozsiz oilalar ro'zg'origa kirib bordi.

– Bilishimcha, kuniga 2-3 dona supurgi tayyorlar ekansiz. Bu juda kam-ku? Nega uni talabga yarasha soni va turini ko'paytirib, ishlab chiqarishni yo'lga qo'ymaysiz?

– Qiziqib ko'rdim. Buning uchun Belorus davlatidan uskuna olib kelish kerak, yo'l va bojxona harajatlari ancha qimmat. Qolaversa, yetarli jamg'armaga ham ega emasman. O'sha 2-3 ta supurgini o'zim yaratgan uskunada asosan qo'l mehnatim bilan yasayman. Tannarxi 25-30 ming so'mga aylanadi, sotishim esa 40-50 ming so'mdan. Supurgilarimning uy, xona, ko'cha, plitkalar orasi, devorlarni supurishga mo'ljallangan turlari bor. "Baklajka"ni ko'chaga chiqindi qilib tashlagandan ko'ra, xalq uchun foydali buyum yasaganimiz yaxshi emasmi.

"Baklajka" supurgilar 3 xil kattalikda tayyorlanadi. Buning uchun ishlatilgan oq, qora, qo'ng'ir, yashil va ko'k rangli plastik idishlar tanlab olinadi. Bitta supurgi yasashga 40 ta "baklajka" ketadi. Plastik idishlar avval maxsus qozonda qaynatilib tozalanadi. Keyin maxsus dastgohda qirqiladi.

– Yurtimizda 2025-yil – "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi. Balki endi sizning boshlagan ishingiz ahamiyati va mohiyati birorta homiy yoki mutasaddilar e'tiboriga tushib qolsa, ajabmas. Axir maqsadingiz ham avvalboshdan tabiatga g'amxo'rlik bo'lgan-ku.

– Ko'pchiligimiz turli gazli ichimlik va sharbatlardan bo'shagan tabiat va atrof-muhitga o'ta zararli deb hisoblanadigan plastik "baklajka"larni tashlab yuboramiz. Bu mahsulot uzoq yil chirimaydi, shunisi bilan ekologiya kushandasi sanaladi. Men ularga ikkinchi hayot berish orqali ham tabiatga, ham odamlarga foydam tegayotganidan, plastik chiqindilar bilan bog'liq muammolarga ozmi-ko'pmi yechim topayotganimdan xursandman.

Tadbirkor bilan suhbatimizdan yana shu ma'lum bo'ldiki, ayni paytda Po'latbek "baklajka"dan "bruschatka" – yo'ltoshlar yaratish ustida ish olib boryapti. Bu mahsulot chidamli, mustahkam, arzon, ekologik toza bo'lish bilan birga, kamharajat, ya'ni tagidan qum-shag'al to'shash talab etilmaydi. Shundoq turpoq ustiga terib chiqilsa, ayni paytda ishlatilayotgan muqobil mahsulotdan 3-5 barobar uzoq muddat o'z butunligini yo'qotmaydi.

Tadbirkor supurgi va "bruschatka"dan tashqari avtomobillarni shatakka olish uchun yoki qurilishlarda kerak bo'ladigan 3-5 metr uzunlikda tross, ro'zg'orda asqotadigan 10-15 metrlik xo'jalik arqonlari kabi mahsulotlarni ham "baklajka"lardan tayyorlab, buyurtmachilarga yetkazib beryapti.

– Yana o'sha gap, – deydi Po'lat Boltaboyev. – Imkonim, jamg'armam bo'lganida xorijdan maxsus uskuna olib kelib, ishimni kengaytirgan bo'lardim. Hozir tayyorlanayotgan "bruschatka"larni yaxshilab sinovdan o'tkazib, mukammal holatda ishlab chiqarishga joriy qilardim. Bu odamlarga ham, tabiatga ham foyda bo'lardi. Menga ayni paytda ishim ko'paysa, qizim va turmush o'rtog'im ko'mak berishadi. Boshqa payt o'zim eplayman. Agar ishlab chiqarishni kengaytirsam, shogirdlar tayyorlar, ishchi o'rinlar yaratar edim.



Nodir MAHMUDOV,
jurnalist



SEN YETIM EMASSAN, TINCHLAN, JIGARIM

(Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaga o‘zbek xalqining qo‘shgan ulkan hissasi)

O‘sha mudhish urush alangasini, dunyo maydonidagi vahshatini tarix sahifalaridan, badiiy adabiyotlaru kino lentalaridan ko‘rib ogoh bo‘lgan bo‘lsak-da, uning jarohatini juda yaxshi his qilamiz. Zero, har birimizning ota-bobolarimiz, momolarimiz chekkan iztiroblar ildizi o‘sha yillarga borib tutashadi. Ana o‘sha ildizlar haqida gap ketganida esa har gal prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mana bu gaplari naqadar haq ekanini anglaymiz: “El-yurtimizning urush yillarida ko‘rsatgan mardlik va qahramonligi biz uchun ulkan jasorat maktabi, g‘urur-iftixor manbai bo‘lib, vaqt o‘tgani sayin bu o‘lmas qadriyatlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda.”

1941-yil, 22-iyun... Fashistlar Germaniyasi Yevropaning harbiy, iqtisodiy resurslarini qo‘lga kiritib bo‘lgach, yakshanba kuni tong saharda hujum qilmaslik to‘g‘risidagi shartnomani buzib, urush e’lon qilmasdan Sovet Ittifoqiga xoinona hujum boshladi. Fashistlarning maqsadi SSSRni bosib olish, boyligini talash, millionlab kishilarni qirish va qolganlarini qul qilishdan iborat edi. Germaniya bilan hamkorlikda uning ittifoqchilari – Italiya, Finlandiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya ham Sovet ittifoqiga qarshi urushga kirishdilar.

Shu tariqa Ikkinchi jahon urushi jahondagi 61 mamlakatni, yer shari aholisining 80 foizini, ya’ni 1,7 milliard kishini o‘z girdobiga tortdi. Urushning dastlabki kunlaridanoq O‘zbekistonning moddiy va ma’naviy kuchlarini urushga safarbar etishga kirishildi. Barcha viloyat, shahar va tuman harbiy komissariatlari harbiy xizmat majburiyatida bo‘lganlarni safarbar etish bilan shug‘ullandilar. Urushning dastlabki oyidayoq yuz minglab vatandoshlarimiz qo‘lga qurol olib frontga jo‘nab ketdilar.

– O‘rta Osiyo harbiy okrugi front uchun jangchilar va zobitlar tayyorlaydigan o‘choqqa aylantirildi, – deydi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi magistranti, mayor Farruxbek Sotvoldiyev. – Bu okrug 1941-yil iyunidan 1942-yil oxirigacha bo‘lgan muddatda harbiy safarbarlik asosida 109 ta qo‘shilma tuzdi, harakatdagi armiyaga va Oliy Bosh qo‘mondonlik zahirasiga 86 diviziya va brigada jo‘natdi. O‘zbekiston hukumati va vatanparvarlik kuchlari milliy harbiy qo‘shilmalar tuzish tashabbusi bilan chiqdilar. 1941- yil 13-noyabrdan 1942-yil martigacha bo‘lgan davrda 14 ta milliy harbiy qo‘shilmalar, jumladan, 9 ta o‘qchi brigada, 5 ta otliq askarlar dviziyasi tuzilib frontga jo‘natildi.

Suhbatdoshimiz aytganidek, O‘zbekiston Ikkinchi jahon urushining hamisha olov yoqib shay bo‘lib turgan o‘choqlaridan biriga aylandi. Ayni davr bilan bog‘liq tarixiy manbalarni kuzatsak, o‘zbek xalqining saxiyligi va mehmondo‘stligini namoyon qiladigan, hatto hayratga soladigan ma’lumotlarga duch kelamiz.

Urushning dastlabki yilidayoq urush bo‘layotgan va dushman yaqinlashib kelayotan hududlardan muhim sanoat korxonalarini, kolxoz, sovxoz va MTS larning mulkarini, madaniy boyliklar va o‘quv yurtlarini sharqqa, jumladan, O‘zbekistonga zudlik bilan ko‘chirib keltirish, joylashtirish ishlari boshlanib ketdi. Fashistlar tomonidan vayron qilingan shaharlar va qishloqlarning aholisi, ota-onasi halok bo‘lgan bolalar, million-million kishilar ulkan oqim bo‘lib ko‘chib kela boshlaydi. Kishilik tarixida bunday katta ko‘lamli mudhish voqea birinchi marta sodir bo‘lishi edi. O‘zbekistonga 150 dan ortiq sanoat korxonasi, jumladan, 48 ta mashinasozlik, metall ishlash, kimyo va boshqa harbiy texnika va mashg‘ulotlar ishlab chiqaruvchi



yirik zavodlarning asbob uskunalari ko‘chirib keltirildi. Tezlik bilan barpo etilgan binolarga joylashtirildi va montaj qilindi. Ishchi, xomashyo jihozlari bilan ta’minlandi va front uchun mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Toshkentda joylashtirigan “Rostselmash” zavodi “Katyusha” va minomet snaryadlari, aviatsiya zavodi jangovar samolyotlar yetkazib bera boshladi. Bag‘rikeng xalqimiz urush yillarida Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya, Boltiqbo‘yi respublikalaridan ko‘chirib keltirilgan kishilarni, shu jumladan, yetim bolalarni o‘z uylariga, oilasiga qabul qildi.

– Ikkinchi jahon urushi tarixi necha o‘n yillardan beri katta qiziqish bilan o‘rganilib kelayotganiga qaramay, front ortidagi hayot va aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash mavzusi ga yetarlicha e’tibor berilmagan, – deydi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari Akademiyasi magistranti , mayor Nuriddin Samidov. – Bu davrda sovet askarlarining oziq-ovqat ta’minoti va ularning ratsioniga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Biroq front ortidagi aholining ovqatlanishiga oid manbalar juda kam. Ko‘pchilik uchun tarixning bu sahifalari yopiqligicha qolmoqda.

Darhaqiqat, o‘sha davrda O‘zbekiston aholisi Ittifoq g‘arbidan evakuatsiya qilinganlar hisobiga ortishi oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabni oshirdi va ta’minot masalasini yanada murakkablashtirdi. 1941-yilga qadar O‘zbekistonda 6,5 million aholi bo‘lgan bo‘lsa, besh oy ichida evakuatsiya qilinganlar hisobiga taxminan 10 foizga ko‘payadi. Bu holat ta’minot rejalarini qayta ko‘rib chiqishni va mavjud zaxiralar miqdorini ko‘paytirishni talab qilgan. O‘zbekiston aholining don mahsulotlariga talabini qondirish uchun intensiv xo‘jalik yuritish usullarini tanladi. Respublika bo‘yicha g‘alla yetishtirishga mo‘ljallangan yer maydonlari ko‘paytirildi. Masalan, Andijon viloyatida g‘allaga ajratilan yer maydoni 1941-yilda 2375 gektar bo‘lgan bo‘lsa, 1942-yilda 38146 gektarga yetadi, ya’ni 16 barobar oshadi.

“G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi boshlig‘i, polkovnik Shuhrat Yusupov “Toshkent parovoz remont zavodi urush yillarida” deb nomlangan maqolasida shunday yozadi: “1942-yilning mart oyida zavod ishchilari tomonidan chiqarilgan “O‘zbekiston” yozuvi tushirilgan birinchi bronopoyezd frontga jo‘natilgan. Bronopoyezdni S.Lobin, V.Bashkatov, A.Sokolov, I. Virvikishkolardan iborat ukrainalik mashinistlar brigadasi va bronopoyezd komandiri Mamedov qabul qilib olganlar. Mazkur bronopoyezd Voronej fronti qo‘mondonligi ixtiyoriga jo‘natilgan. 1943-yilning yozida Kursk yonida ikkinchi jahon urushining hal qiluvchi janglaridan biri bo‘lib o‘tadi. Ushbu jangovar operatsiya davomida hujumga o‘tgan verxmat kuchlari strategik mudofaada turgan bizning qo‘shinlarimiz tomonidan to‘xtatib qolinadi va tor-mor qilinadi. Bu jangovar harakatlarda “O‘zbekiston” bronopoyezdi muvaffaqiyat bilan qo‘llanildi. U front chizig‘iga shiddat biolan yorib kirib, o‘z artilleriya vositalaridan dushmanga zarbalar berib, qo‘shinlarimizning olg‘a harakatlanishlari uchun imkoniyat yaratib beradi.”

Bugungi kunda ushbu zavod mehnatkashlarining qahramonliklari tarix kitoblari sahifalaridan, zavod muzeyi hamda “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasida bunyod etilgan vokzal muzeyi ekspozitsiyalaridan joy olgan. “O‘zbekiston” bronopoyezdi fashistlarning pulemyot, artilleriya va aviatsiya yordamida bergan zarbalariga bardosh bera oldi va o‘zini shon-sharafga burkagan holda katta janglarda g‘alaba qozondi. U o‘zining og‘ir zenit artilleriyasi bilan 5 ta g‘anim samolyotlarini urib tushirgan. Yana bir jangda bronopoyezd ekipaji bronopoyezdni qo‘lga olish uchun tushirilgan dushman desantlarini qurolsizlantirib ularni asirga olgan. Jangovar harakatlarda bronopoyezdning 100dan ortiq qismlariga shikast yetdi, ammo dushmanning har qanday zarba berish vositasi uning zirhini yorib o‘ta olmadi, bronopoyezd jangovar salohiyatini saqlab qoldi.

G‘alaba bog‘i uzra tebranib turgan anvoyi gulu rayhonlar oralab ortimizga qaytarkanmiz, o‘sha mudhish yillar qa’rida o‘z matonati, jasorati, va fidoyi mehnati bilan har sohada kamarbasta bo‘lgan, kunni tunga ulab bor kuch-g‘ayrati bilan front ortida kurashgan, mehnat qilgan bobolarimiz va momolarimiz ruhini sezganday bo‘ldik. “Sen yetim emassan, tinchlan, jigarim”, deya ne-ne yetim bolalarni, bag‘ri kuyik onalarni bag‘riga olib boshini silagan ajdodlarimizning mehr to‘la ko‘zlarini ko‘rgandek, so‘zlarini eshitgandek bo‘ldik. Zero, tarix eshigi juda nozik va sirli xilqatdir. Biz bu xilqatni yodga olsak, unutmasak, demak u hamisha tirikdir. Demak, ushbu xilqat odamlari hamisha bizning yonginamizda, qonimizda, duolarimizda, xotiramizning eng ichkin va sezgir tomirlaridadir.

Muxtasar TOJIMAMATOVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi



QUTQARUVCHI UCHUN OG'IR KUN BU...

Qutqaruvchi kutilmagan falokatlarda – og'ir kunda insonlarga yordamga oshiquvchi sharafli kasb egalaridir. Ammo hayotda shunday vaziyatlar bo'ladiki, qutqaruvchining o'zi ham shoshib qolishi, yordamga ehtiyoj sezishi va yo tushkun kayfiyatga tushishi mumkin. Xo'sh, qutqaruvchi uchun qanday kun og'ir kun sanaladi?

Aksariyat odamlar ish kunini ozoda, saranjom ofisda, qishda issiq, yozda salqin sharoitda, toza kiyimlarda tinch va sokin tarzda boshlaydi. Ammo qutqaruvchi uchun qishin-yozin maxsus ekipirovkada og'ir texnikalar bilan nafas olishga qiyin sharoitlarda ishlash odatiy hol. Yong'inda, suv yo yer ostida, tog'u toshlar, cho'lg'u biyobonlar, kimyoviy zaharlanish yuqori joylar deysizmi, oddiy odam yaqin ham kela olmaydigan joylarga qutqaruvchi inson hayoti uchun kurashish maqsadida tikka kirib boradi. Ha, bunday vaziyat bizlar uchun og'ir kun. Qutqaruvchi uchun og'ir kun tushunchasi boshqalarnikidan biroz farq qiladi.

XAVF CHAQIRIQLARI YOMG'IRDAY YOG'SA...

Izzatillo RAZZOQOV,
Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlarda boshqaruv markazi smena boshlig'i, mayor:

– Shunday kunlar bo'ladi umuman chaqiruvlar bo'lmaydi. Birovning uyi yonsin demaymiz, yo'q, aslo. Biroq chaqiruv bo'lmasa odam zerikadi bir qadar. Bu ham bir kasb kasaliga o'xshagan tushuncha. Chaqiruvlar tushmay qolsa maxsus kamera orqali shahar hududini ko'zdan kechiramiz, gidrantlar tekshiriladi, favqulodda yong'in chiqqanda chaqirilgan joyga qisqa muddatda olib boradigan yo'llar, eng yaqin suv manbalari o'rganiladi, nosoz texnikalar ta'mirlanadi. Bular ham yengil ish emas aslida. Ammo bular biz uchun og'ir kun-da sanalmaydi. Aslida og'ir kun tushunchasi individual. Ya'ni bu borada hammaning o'z qarashi, o'z haqiqati bor. Nazarimda qutqaruvchilar uchun nisbatan qiyin kechadigan kun bu – chaqiruvlar ketma-ket bo'ladigan kun. Texnikalar va qutqaruv ekipajini to'g'ri taqsimlash bunday vaziyatlarda suv va havodek muhim sanaladi. Bir qarasang umuman chaqiruv yo'q, bir qarasang murojaatlar yomg'irday yog'iladi.

Masalan, shu yil 6-avgustda bo'lib o'tgan yong'inlarni olsak, bir kunda uch joyda yong'in sodir bo'lgan. Birinchi yong'in Toshkent viloyati, Zangiota tumani Tokzor mahallasida tush payti, soat 12 yarimda maishiy do'konlar yonayotgani haqida xabar kelib tushdi. Do'kon degan bilan kichik joy emas edi, umumiy 12 ta texnika jalb qilingan, 400 kv/m yongan. Soat 14 lar atrofida endi yong'in o'chiril-



gan ham edi, ikkinchi yong‘in chaqiruvi kelib tushdi. Bu galgi manzil Toshkent shahar, Olmazor tumani, Ibrohim ota mahallasi. Soat 15:15 da tushgan chaqiruvga uchta texnika jalb qilingan. 160 kv/m maydon alanga ichida qolgan. Bu yong‘in nisbatan kichik bo‘lgani sabab 26 daqiqada o‘chirildi. Ammo oldinda bizni yana bir yong‘in kutib turardi. Xuddi shu kuni poytaxtning mashhur ko‘chalaridan biri Nazarbekda salafan ishlab chiqarish sexida yong‘in kelib chiqqani haqida xabar kelib tushdi. Soat 16:45. 250 kv/m hudud yongan bu fojiani bartaraf etishga 4 ta mashina jalb qilindi. Bu kun bizni qiynagan vaziyat suv manbalarining uzoqda joylashuvida ko‘ringan. Anglaganingizdek, qutqaruvchilarimiz uchun bu kun alohida murakkablikka ega kunlardan biri bo‘ldi deb ayta olaman.

“MEN UCHUN CHAQIRUVLAR BO‘LMAGAN KUN OG‘IR O‘TADI”

Umid TO‘LAGANOV,
Chirchiq maxsus qutqaruv otryadi komandiri, mayor:

– Biz favqulodda vaziyatlar ketma-ket kuzatilganda, og‘ir vaziyat bo‘lsa bir paytning o‘zida to‘rtta yo‘nalish bo‘yicha qutqaruv guruhini chiqara olamiz. Bular: tog‘da qutqaruv, suvda qutqaruv, yo‘l transport hodisalari va kimyoviy-biologik favqulodda vaziyatlar.

Maxsus qutqaruv otryadi bo‘lganimiz bois bizga deyarli har kuni ikkitadan murojaat kelib tushadi. Vujudimiz jangovar harakatga moslashganidan chaqiruv bo‘lmagan kun yo‘lini yo‘qotgan musofirday bo‘lib qolamiz. Shaxsan men uchun chaqiruvlar bo‘lmagan kun og‘ir o‘tadi, ichim siqiladi. Tinchlik-mikan, nega hech kim bizni yordamga chaqirmayabdi, degan ajoyib xavotirga ham borib qo‘yamiz ba’zan. Ammo bunday vaziyat kamdan kam kuzatiladi.

Kunlardan bir kun Chirchiq daryosi bo‘yida odam yo‘qolgani haqida xabar kelib tushdi. Bu daryoni bilsangiz kerak, Sirdaryogacha boradi. Parallel paytda tog‘da qutqaruv bo‘yicha ham chaqiruv bo‘ldi. Ayni shu kuni yo‘l transport hodisasi ham kuzatildi. Har birida inson hayoti xavf ostida qolgandi. Shunday paytda o‘zim ham chaqiruv kelgan joylarga chiqib, qutqaruv ishlarida bevosita ishtirok etdim. Kimningdir hayotini qutqarsangiz uning minnatdor nigohi, rahmatini eshitib charchoqlar ham tarqab ketadi. Shu sabab men ishimdan zavq va kuch olaman.

RUHIY TARANGLIK BO‘LGAN KUN

Rustam SEYTRIZAYEV,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi FVB FV da boshqaruv markazi smena boshlig‘i:

– Aslida yong‘in degan balo fasl tanlamaydi. Yozda elektr jihozlari simlaridagi qisqa tutashuvlardan ko‘p yong‘in chiqsa, kuzda hazon yonishi oqibatida, qishda elektr pechlari, isitgich moslamalaridan to‘g‘ri foydalanmaslik natijasida, bahorda ham deyarli shular bilan bog‘liq vaziyatda yong‘inlar kelib chiqadi. Har birida ham inson joni va molini qutqarish muhim vazifa.

17 yoshimda bo‘lgan voqea sabab qutqaruvchilik kasbini tanlaganman. O‘shanda bir hududga ketayotgandim, birdan avtobusda yong‘in chiqdi. Darxol odamlarni avtobusdan tushishlariga yordam berib, qor bilan avtobus ichidagi olovni o‘chirdim. Natijada yangi olgan kurtkam yaroqsiz holga keldi. O‘shanda qutqaruvchi har qanday og‘ir vaziyatlarga shay bo‘lsagina odamlarni qutqara olishini his qilganman.

Qutqaruvchi uchun og‘ir kun vaziyatga qarab kuzatiladi. Hammada har xil. Masalan, men uchun ruhiy taranglik bo‘lgan kun nisbatan og‘ir kun bo‘ladi deb ayta olaman. 2018-yil tunggi soat uchda bir odam baland binolarning birida joniga qasd qilayotgani haqida xabar kelib tushdi. O‘lishga ahd qilgan odamni shashtidan darrov qaytara olmaysiz. Bu odamni xavfsiz joyga olib o‘tishda chalg‘ituvchi savollardan foydalanib, qutqarishga, xavfsiz joyga olib o‘tishga muvaffaq bo‘lganmiz. Yana bir chaqiruvda, katta yong‘inda o‘limga go‘yoki roziday quchoqlashib, binoning uchinchi qavatida yordam ham chaqirolmay, yig‘lab turgan ikki keksa er-xotinni ruhiy dalda bilan qutqarishga erishganman. Shunday vaziyatlarda ruhiy taranglik qutqaruvchini jismoniy mehnatdan ko‘proq qiynashini his qilganman.

Xulosa qilib aytganda, qutqaruvchi ham odam, u ham charchashi tabiiy hol. Ammo bu charchoqlar vaqtincha. Bu charchoqlar kasbdan yiroqlashishga emas, aksincha, yanada ichkarilab borishiga zavq beradi, ichidagi kasb olovini o‘tqalaydi. Zero, kasb mashaqqatiga chidagan odamgina uning professionali bo‘la oladi. Shunday emasmi?

Yulduz O‘RMONOVA,
“Muhofaza” muxbiri



Olovsiz “yong‘in”

(voqeiy hikoya)

Olov bo‘lmagan joyda tutun bo‘lmaydi, deydi xalqimiz. Ammo olov bo‘lmasa ham tutun bo‘lishi mumkin, sizga aytsam. Kunlardan bir kun navbatchi dispetcherga ajoyib bir murojaat kelib tushdi. Murojaat yo‘llagan oddiy fuqaro qo‘shnining uyidan tutun chiqayotgani, ammo olov ko‘rinmayotgani, uyning qo‘ng‘irog‘ini chalsa hech kim ochmayotganini aytib, yordam so‘radi. Biz baribir yong‘in chaqiruvi bilan yo‘lga otlandik.

Uy olma qo‘shni ol degan maqolni xalqimiz juda topib gapirgan. Buni biz chaqiruvlarda ham isbotini ko‘p bora ko‘rdik. Aksariyat chaqiruvlar qo‘shnilar tomonidan kelib tushadi. O‘zbek xalqining bir-biriga e’tiborli, marhamatli ekani kishini quvontiradi ham. Mana shu voqeada ham Davlatobod tumanida bir o‘zi yashaydigan qariya uyidan tutun chiqayotgani, o‘zidan esa darak yo‘qligi haqida hamsoyalardan xabar kelib tushgan.


Odatiy ish kunlarimizning birida xavf chaqirig‘i bilan yo‘lga otlandik. Derazadan ko‘rinayotgan jimittak tutun surati uchun tumonat odam yig‘ilgan. Tomosha uchun emas, ichkarida odam qolgan, yolg‘iz yashaydigan keksa, eshik-deraza qulf, odamdan sado yo‘q, tutun quyuq bo‘lmasa-da harqalay borligini bildiradigan darajada, hamma ham xavotirga tushadi.

Ba’zan o‘ylab qolaman, odam qanday keksa yoshli yaqinini uyda yolg‘iz yashashiga qo‘yib berar ekan. Modomiki yolg‘iz yashashiga qo‘yib beribsan, holidan xabar olib turmaysanmi deb koyisang-da biror kimni. Afsuski u kun keksaning biror yaqinini uchratmadik. Qo‘shnilar omon bo‘lsin, qarindoshdan kam emas ekan.

Biz ko‘p qavatli turar joyga kelgach eshikni avval taqillatib ko‘rdik, keyin buzishga urindik, keyin keksa odamga ish orttirmaylik deb qo‘shni xonadonning derazasidan oshib, ishkomidan uyga kiradigan bo‘ldik. Bu fikr qo‘shnidan chiqqan bo‘lsa-da biz uchun ham ayni muddao bo‘ldi.

Derazadan oshib o‘tgan ham edik uyda tutayotgan ko‘rpa ko‘rindi ko‘zimga. Keksa chol esa ichgan, mast holda uhlab qolgan. Azbaroyi sarxushlikdan tutunni ham sezmagan. Tutayotgan narsa esa ko‘rpachaga tushgan sigaret qoldig‘i edi. Yaxshiki gilamga tushmabdi, gilam tez yonuvchan ko‘rindi. Agar unga tushganda jimittak cho‘g‘dan katta alanga chiqqan bo‘lar, amaki esa mastlikda o‘zini boshqara olmay, tutun ichidayoq bo‘g‘ilib o‘lardi ehtimol. Yaxshiki tez alanga olmaydigan matoli ko‘rpacha ustiga tushgan ekan tamaki. “Olovni” o‘chirdik. Amakini o‘ziga keltirib, tez yordam chaqirdik. Hayotini saqlab qolgani uchun bizdan ham ko‘p, qo‘shnilardan minnatdor bo‘lib, “yolg‘izman deb xafa bo‘lmasam ham bo‘larkan, shukr” deya ko‘zlari yoshga to‘ldi sho‘rlikning...

Inomiddin IRISOV,
Namangan viloyati FVB maxsus vazifalarni bajaruvchi qutqaruv guruhining yo‘riqchi-qutqaruvchisi



MIS QALPOQLI YIGIT

Hali xalq koʻrinmas koʻcha-koʻylarda,
Tongning gʻira-shira boʻlgan mahali,
Tungi uyqusini shirin oʻylarga
Almashtirgan
qizlar turmagan hali...
Soʻnggi qavatdagi oynadan shunda
Yolqinning qip-qizil tili yalt etdi.
Chirsillab burqsib chiqqan tutunda
Kimdir chinqirardi:
– Voy-dod! Oʻt ketdi...

Keldi jangir-jungur qizil mashina,
Koʻz ochib yumguncha ichak tortildi.
Kimdir shoti qoʻyar tik tom boshiga
Birov ichkariga qarab otildi.

Mis qalpoqli yigit chiqar tirmashib
Beshinchi qavatning oynasi tomon;
Yuzin yamlasa ham olov chirmashib,
Narvonni uzaytar, oʻrmalar hamon...
U olov ichidan chopib, entikib,
Bir qizni koʻtarib chiqdi yoʻlakka.
Qiz, esin yigʻolmay, unga koʻz tikib,
Turardi, shalabbo, kuygan koʻylakda...
Yigit hech voqea boʻlgani yoʻqday,
Yana tutun ichra shoʻngʻidi oʻqday.

Kuygan kipriklari pirpirasa-da,
Qiz oʻrnidan jilmay uni izladi.
Goh tomda koʻrindi, goh derazada
Yigitning qurumli, yongan yuzlari.
Qiz koʻzin uzmasdi...
Yigit ketarkan,
Uyalib, artardi manglay "qashqa"sin.
Bir oʻtni oʻchirdi...
Lekin gumonim bor –
Yoqib ketmadimi bunda boshqasin?..

Asqad MUXTOR

№ 8-son, 2026

MUHOFAZA

ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-amaliy va badiiy jurnal



Mustaqillikning 35 YILLIGI MUBORAK BO‘LSIN!

“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib,
yangi hayot va kelajak yaratamiz!”